

O'zbekiston respublikasi xalq talim vazirligi
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti.
«Milliy g'oya, manaviyat asoslari va huquq ta'limi»
kafedrası

«Milliy g'oya, manaviyat asoslari va huquq ta'limi » bakalavr
IV-b kurs talabasi Bekniyazov Azizbek Baxtiyarovichning

Bitiruv malakaviy ishi

**Mavzu: Odam savdosiga qarshi kurashning
huquqiy asoslari**

Ilmiy raxbar:
Kafedra mudiri:

p.f.n: T. Qudaybergenova
A.Embergenov



«Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha koʻrinishlari taqiqlanadi».

Inson huquqlari umumjahon Deklarastiyasi, 4-modda.

SHIOR: *Odam savdosi – global muammo, unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va birdamlik dardkor.*

I.A.Karimov

Odam savdosiga qarshi kurashning huquqiy asoslari

Reja :

I. Kirish

II. Asosiy qism

1 –bob: Odam savdosi jinoyatchiligi tushunchasi va uning rivojlanish tarixi.

1.1. Odam savdosi jinoyatinin' jinoiy- huquqiy tavsifi .

1.2. Odam savdosi transmilliy jinoyat

2-bob: Odam savdosiga qarshi kurashning huquqiy asoslari

2.1. Odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

2.2. Odam savdosiga qarshi kurash va uning oldini olish ilojlari

III. Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatida ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy salohiyatining nufuzi kundan-kunga ortib borishining sharti, hozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga asoslangan kuchli fuqarolik jamiyatini qurish jadallik bilan amalga oshirilishida namoyon bo'lmoqda. Fuqarolarimizning mehnat qilish, dam olish, bilim olish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish kabi konstitustiyaviy huquqlarini erkin amalga oshirishi, millatlar va davlatlar o'rtasida erkin iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy aloqalarni o'rnatishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda fuqarolarning bu kabi huquqlarining kafolatlanishi esa, ko'plab fuqarolarning xorijiy mamlakatlarga bemaol chiqishlari uchun imkoniyat va etarli shart-sharoitlar yaratdi. Buning natijasida xalqaro migratsiya jarayonlari birmuncha faollashdi, fuqarolarning mehnat qilish, ta'lim olish, turizm va shu kabi turli maqsadlarda boshqa davlatlarga chiqishi, erkin faoliyat olib borishi uchun imkoniyatlar yanada kengaydi.

Afsuski, ayrim shaxslar mamlakatimizda yaratilgan bunday shart-sharoit va imkoniyatlardan g'arazgo'ylik maqsadlarida foydalanib, fuqarolarimizdan foydalanish uchun, ularni aldov va boshqa past niyatlarini amalga oshirish, xorijga olib chiqib, ularning mehnati, bilimi va eng achinarlisi esa tana a'zolaridan, shuningdek, bu kabi shaxslardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish kabi jirkanch holatlar ko'payib ketishiga ham sabab bo'ldi. Buning oqibatida ko'pgina fuqarolarimiz boshqalarning «manfaatlari» qurboniga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi:

Insonni ulug'lash, uning huquq va erkinligi himoyasini ta'minlash asosiy qadriyatga aylangan ushbu davrda odam savdosining har qanday ko'rinishiga qarshi kurash muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolarimizning o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishining kafolati va ularning ozodligini ta'minlanishi maqsadida o'tgan yillar mobaynida Respublikamizda bunday jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Avvalo, bu davrda odam savdosi jinoyatlariga barham berishning normativ-huquqiy bazasi yaratildi. Jumladan, 1994 yil 22 senetyabrda qabul

qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ilk bor odam savdosiga qarshi kurashish maqsadida bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilandi. Odam savdosi jinoyatlarining ijtimoiy xavflilik darajasi uning yildan yilga o'sishi natijasida yanada yuqori bo'lib bormoqda. Bu esa, inson, uning sha'ni, qadr-qimmat, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan, o'z domiga asosan ayollar va yoshlarni tortayotgan, transmilliy uyushgan jinoyatchilik ko'rinishlaridan biri bo'lgan odam savdosiga qarshi kurashish faoliyatini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Odam savdosi xalqaro uyushgan jinoyatchilikning tarkibiy qismi, global jinoiy hodisa bo'lib, u, tobora kengayib borayotganligi sababli, bugungi kunda ko'plab mamlakatlarni jiddiy tashvishga solayotgan muammo hisoblanadi.

Ishning yangiligi: Mamlakatimiz Prezidenti o'sib kelayotgan yoshlarni bunday tahdidlardan himoya qilish, ularning dunyoga ochiq ko'z bilan qarash ko'nikmalarini egallashida ma'naviy-mafkuraviy tarbiyaning roli beqiyos ekanini alohida ta'kidlaydi:

«Faqat jismoniy jihatdan baquvvat bo'lgan odamni tarbiyalash unchalik qiyin emas. Ammo uni ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan kamol toptirish g'oyat murakkab vazifa. Ayniqsa bugungi kunda - mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan hozirgi nozik, qaltis sharoitda, tahlikali zamonda bu masala nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega»¹.

Odam savdosining qurboni bo'lgan bolalar uzoq muddat mobaynida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmaydilar, natijada ular tutkunlik kishanidan katta yoshda qutilganlarida bu imkoniyatdan bebahra qoladilar. Bunga qo'shimcha, ular normal hayotga qaytgandan so'ng ham, ma'lumoti bo'lmaganligi sababli, yaxshi haq to'lanadigan ishga kira olmaydilar. Bundan tashqari, odam savdosi har yili jinoiy sindikatga ulkan daromad keltirib², xalqaro jinoyatchilik, jumladan, terrorizmni ham moliyalashtiruvchi asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

¹ Қаранг: *Каримов И.А.* Ёшларимиз ҳалқимизнинг ишончи ва таянчи. – Т.: Маънавият нашриёти, 2006. – Б. 8.

² *Фозилов И.Ю.* Торговля людьми – глобальное зло // Самаркандский вестник. 4 февраля 2009 года, – № 9 (17969). – С. 4-5.

Ushbu jinoiy hodisaning mudhish oqibatlarini sanashni yana uzoq davom etirish mumkin, albatta. Biroq yuqorida ko'rsatib o'tilganlarning o'ziyoq odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar jamiyat uchun juda og'ir ijtimoiy, axloqiy va iqtisodiy oqibatlarni keltirib chiqaradi, shuningdek, milliy xavfsizlikka, millat ma'naviyatiga kuchli taxdid soladi, degan xulosa qilish imkonini beradi. Uyushgan jinoyatchilik, xususan, xalqaro terrorizm, narkobiznes, qurol-yaroqlarning g'ayriqonuniy muomilasi bilan bog'liq o'ta og'ir jinoyatlar qatorida odam savdosining (traffik) har qanday ko'rinishiga qarshi kurash bugungi kunning dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi: O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O`zbekiston Respublikasi qonunlari, xalqaro hujjatlar, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqiy hujjatlari, O`zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlari va boshqa normativ huquqiy hujjatlardan iborat.

Ishning tuzilishi: Ish Kirish, 2 bob,4 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar tizimidan iborat.

1 –bob: Odam savdosi jinoyatchiligi tushunchasi va uning rivojlanish tarixi.

1.1. Odam savdosi jinoyatining jinoiy- huquqiy tavsifi .

O'zbekistonda mustaqillik qo'lga kiritilgan daslabki kunlardan boshlab Konstitusiyamizda, qonunlarimizda va umume'tirof etilgan xalqaro qonunchilik normalarida mustahkamlangan inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, uning hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmatini va boshqa qonuniy manfaatlarini daxlsizligini himoya qilish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Shundan kelib chiqib, Konstitusiyamizda «har bir insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega»ligi mustahkamlandi. Demak, har kim shaxsiy hayotini o'zi hojlagancha tuzishi va egalik qilish (qonuniy cheklashlardan tashqari), shaxsiy va oilaviy sirlarlarini saqlash, o'zining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega.

Afsus bilan ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ayrim shaxslar jinoyat sodir etish yo'liga kirib, fuqarolarimizni turli aldov va firibgarlik yo'li bilan tuzog'iga ilintirib, ulardan o'zlarining g'ayriqonuniy manfaatlarini yo'lida foydalanib, ko'pgina oilalarning boshiga so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan kulfatlar keltirib, odam savdosi bilan shug'ullanmoqdalar. Buning oqibatida ko'pgina fuqarolarimiz odam savdosi jinoyatining qurboniga aylanmoqda.

«Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida odam savdosi jinoyatining tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Odam savdosi — bu kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishni, shuningdek, odamlardan foydalanish maqsadida boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash

odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi.

Odam savdosi qadimdan mavjud bo'lgan jinoyatlardan biridir. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, antik davrda odam savdosi oddiy hol bo'lgan. Bunda savdosotiq ob'ekti - inson qul maqomida bo'lgan. Inson huquqlari bo'yicha lug'atdagi ta'rifda qulchilik (Slavery) deganda, o'z ish beruvchilarini tanlashda mustaqil bo'lmagan, mulk yoki ashyo sifatida bozorda sotib yuborilishi mumkin bo'lgan shaxsning hayot sharoiti va maqomi tushuniladi. XVII asrda Amerikaga qullar Afrikadan keltirilishi bilan odam savdosi yanada avj oldi.

Odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha OBSE vakili Xelga Konradning ta'kidlashicha, har yili 200 mingdan 500 minggacha kishi odam savdosi bo'yicha g'arbiy Evropa davlatlariga olib kiriladi. Ular ichida ayollar 60%ni, erkaklar 40%ni tashkil etadi. Vakillar har yili odam savdosidan olinadigan foyda 10-15 milliard dollarni tashkil etishini ta'kidlaydi. Odam savdosi bu jinoiy zanjir, uning kichik bo'g'inidan boshlab so'nggisigacha kurashish kerak. Faqat shundagina muvaffaqiyatga erishish mumkin. Odam savdosi bir vaqtning o'zida ham jinoyat huquqi, ham inson huquqlari himoyasi masalasidir^{3[19]}.

Odamlar savdosi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida ham ko'p uchrovchi hodisaga aylanib bormoqda. Mazkur davlatlardagi murakkab iqtisodiy vaziyat, ishsizlik darajasi yuqoriligi, aholi huquqiy ongining pastligi va fuqarolar huquqiy jihatdan mukammal himoyalanganligi sababli odamlarni chet elga ishga taklif etib, ularni ekspluatatsiya qilish kabi jinoiy tadbirkorlik taraqqiy etgan. "Tirik mahsulot" eksporti Turkiya, Italiya, Ispaniya, Germaniya, Vengriya, Chexiya, Grestiya, Rossiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Isroil, Amerika Qo'shma shtatlari, Skandinaviya kabi davlatlarda amalga oshiriladi. Erkaklarni asosan quruvchilik, konchilik kabi ishlarda, ayollarni esa uy xizmatkori, idish-tovoq yuvuvchi, farrosh kabi ishlarga majburan jalb qilishadi. Biroq, oddiy ekspluatatsiya dan tashqari seksual biznes sohasiga ham majburan jalb etish ham anchagina ko'p.

^{3[19]} Противодействие торговли людьми и защите прав женщин. Киев: Украинский институт социальных исследований. 2000. – С. 58-82.

Yosh ayol va qizlarni chet ellarga ko'p pul topish mumkin bo'lgan ishlarni taklif etib, aldab o'z Vatanlaridan olib chiqib ketish hamda ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib quyib, fohishabozlikka majbur etish holatlarining guvohi bo'lmoqdamiz. Bunday mushkul ahvolga tushib qolgan ayollar xorijga g'ayriqonuniy yo'llar bilan chiqilganligi sababli mahalliy huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etishga qo'rqishadi.

Qulchilikning bu ko'rinishi, inson huquqlarining buzilishi, ayollarning diskriminastiya qilinishi sifatida mazkur jinoyatlarga qarshi xalqaro hamjamiyatning va har bir davlatdagi jamoatchilik kuchlarini birlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur muammo chegara bilmaydi, rivojlangan, rivojlanayotgan yoki rivojlanmagan davlatlar, deb ajratilmaydi. Ushbu muammo nizolar girdobidagi davlatlar uchun ham, tinch yashayotgan davlatlar uchun ham xos bo'lib, ko'p katta boylik orttirish va shahvoniy maqsadlar bilan bog'liq bo'lgan mazkur muammo bir vaqtning o'zida jamiyat a'zolarining axloqiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

“Oq qulchilik” deb nomlangan ushbu holat XX asr boshlarida yuzaga keldi. 1904 yilda Evropaning ko'pchilik davlatlari mazkur holatga qarshi kurashda hamkorlik qilish bo'yicha Parijda Xalqaro shartnoma imzolanganlaridan so'ng “oq qulchilik” atamasi paydo bo'ladi.

Odamlar savdosi – bu alohida shaxsni (yoki guruhni) yollash, ularni bir davlat chegarasi doirasida yoki chegarasidan tashqariga olib ketish bilan bog'liq bo'lgan barcha harakat yoki maqsadlar bo'lib, u o'z ichiga sotish, sotib olish, topshirish, bunday harakatlarni foyda ko'rish yoki shunchaki bunday shaxsni keyinchalik aldab yoki majburlab (zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib), shuningdek, xizmat mavqeini suiste'mol qilish yo'li bilan ishlatish maqsadida ushlab turishni, shuningdek, shaxsni hohishiga qarshi holda qulchilik sharoitida haq to'lash yoki to'lamasligidan qat'i nazar ushlab turishni ham o'z ichiga oladi^{4[20]}.

^{4[20]} Долголенко Т. Уголовная ответственность за торговлю людьми. Уголовное право. 2004. - № 2. – С.23-25.

Albatta, xalqaro miqyosda odamlar savdosiga qarshi kurash bo'yicha qator ijobiy tadbirlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Jumladan, 2000 yil dekabr oyida BMT Bosh Assambleyasi tomonidan "Transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risidagi Konvenstiya" va uni to'ldiruvchi "Odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish bo'yicha Protokol" qabul qilindi.

Odam savdosi jinoyatiga qarshi kurash va uning oldini olish, shuningdek, qabul qilingan qonunlarni xalqaro andozalarga moslashtirish alohida ahamiyatga ega. Sababi bu borada xalqaro hamjamiyatning tutgan o'rni beqiyos.

O'zbekiston Respublikasida ham bu borada ijobiy ishlar qilinmoqda. Xususan odamlar savdosiga kurashish va uning oldini olish maqsadida boshqa tegishli idoralar, tashkilotlar bilan hamkorlikda shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi va xalqaro tashkilotlarning faol ishtirokida va yordami bilan ishchi guruhlar tuzilgan, profilaktika, tezkor va qonunni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar rejalashtirilgan. Biroq hali ham qator qilinadigan ishlarimiz va muammolarimiz mavjud.

Bir tomondan Konstitustiyaga muvofiq, har qanday fuqaro erkin harakatlanish, jumladan, chet elga chiqish huquqiga egadir, boshqa tomonidan esa fuqarolarning davlat xududidan chiqishlari ustidan qonunga muvofiq nazorat qilinmas ekan, odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun ularni chet davlatlarga olib chiqilishini aniqlash va bu holning oldini olish qiyin bo'ladi.

Odamlardan foydalanish uchun yollash jinoyat ishlarini o'rganish, shundan dalolat beradiki, jabrlanuvchilar qanday vazifani bajarish uchun chet elga chiqayotganligini juda yaxshi anglaydi, ishlagan pullarining muayyan qismini ushbu safarni tashkil qilganlarga berishi kerakligini biladilar.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi kunda ushbu hodisaga qarshi kurashga huquqiy baza yaratish masalasi ancha rivojlanmoqda. Oldingi jinoyat kodeksida "Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash" (1q5-m) uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan va bu qilmishga "shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda foydalanish uchun aldash yo'li bilan odam yollash" deb ta'rif berilgan edi. Ushbu modda mazmuniga ko'ra yollash deganda "shaxsni topish va u bilan qandaydir faoliyat bilan

shug'ullanish haqida bitim tuzilishi" tushuniladi. Jinoyat qonunida yuqoridagi modda mavjudligiga qaramasdan, O'zR MXX tergov bo'linmalari tomonidan JK amalda bo'lgan o'tgan davr mobaynida tergov olib borilishi ularning vakolatiga kirgan moddalar bo'yicha birorta ham shaxs jinoiy javobgarlikka tortilmagan. Xuddi shunday holatni O'zR JK 1q7-moddasi "odam o'g'irlash" bo'yicha ham kuzatish mumkin. Shu bilan birga qonunda yuqorida nomlari keltirilgan ikkita moddaning mavjudligi odamlar savdosi, g'ayriqonuniy migrastiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun etarli emas edi.

Bu jinoyat butun dunyoning barcha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarida uchraydi. Xususan, mustaqil O'zbekiston Respublikasida ham oxirgi yillarda odam sadosiga oid holatlar ma'lum bo'lgan.

Shu munosabat bilan JK 1q5-moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi lozim edi.

O'zbekiston Respublikasi Senatining 2008 yil 29 avgustdagi yalpi yig'ilishida mamlakatimiz Jinoyat kodeksining 1q5-moddasi (Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash) yangi tahrirda berildi va 1q5-modda "Odam savdosi" deb nomlandi.

Shuningdek, odam savdosi bilan shug'ullangan shaxsning jinoiy javobgarligi ham kuchaytirildi.

Odam savdosi, ya'ni, odamni olish – sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi.

Odamlardan foydalanish – boshqa shaxslarni fohishaligidan foydalanish yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o'xshash odatlar, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni o'z ichiga oladi.

Odam savdosining ob'ekti shaxsning shaxsiy erkinligidir. Ushbu holatda jinoiy javobgarlikning muqarrirligi shaxs erkinligining kafolatidir. Jinoyatning ob'ektiv tomoni esa, odam savdosi ya'ni, shaxsni ekspluatatsiya qilish maqsadida olish-sotish, yollash, tashish, topshirish, yashirish, yoki qabul qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan harakatlardan biri sodir etilganda jinoyat tamom bo'lgan hisoblanadi.

Olish-sotish - fuqarolik huquqiga oid atama yoki shartnoma sifatida O'zR FK q86-moddasida ko'rsatilgan. Olish-sotish sotuvchi mulkni oluvchiga berish majburiyatiga, oluvchi esa, mulkni qabul qilib olish va sotuvchiga ma'lum summani berish majburiyatiga ega. Agarda bunday shartnoma odamga nisbatan tuzilgan bo'lsa, JK 1q5-moddasida ko'rsatilgan jinoyat hisoblanadi.

Yollash - odam savdosi jinoyati dispozitsiyasida ko'rsatilgan harakatlardan biri. Agarda odamni yollash jarayonida zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo'llash orqali sodir etilgan bo'lsa, ushbu qilmish JK 1q5-moddasi 2-qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Tashish – ushbu harakat jabrlanuvchini bir joydan boshqa joyga, yoki bir xudud chegarasida ko'chirib qo'yimoq tushuniladi.

Topshirish – harakat yoki harakatsizlik bilan, ya'ni, jabrlanuvchi jinoyatchi qo'lida qonuniy yoki g'ayriqonuniy holatda bo'lishi mumkin. Topshirish har qanday muddatga yoki doimiy amalga oshirilishi mumkin. Ushbu holatda jinoyatning sub'ekti jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilishga topshirgan shaxs hisoblanadi.

Yashirish – ushbu harakat odamni ekspluatatsiya qilish maqsadida yashirishga qaratilgan.

Qabul qilish – ushbu harakat topshirish, qabul qilish, almashish va h. k. natijasida ega bo'lmoq tushuniladi.

Ushbu harakatlarning sub'ektiv tomoni jinoyatning ob'ektiv tomoniga kiruvchi to'g'ri qasddan jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilish maqsadida ko'rinadi.

Jinoyatning sub'ekti jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to'lgan, aqli raso, jismoniy shaxsdir.

Shuningdek, ushbu jinoyat sub'ekti odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish harakatlarini sodir etadi yoki ushbu harakatlarni sodir etishni hohlaydi.

Odam savdosi tufayli olinayotgan daromad giyohvandlik vositalari va qurol-yaroq savdosidan keyin uchinchi o'rinni egallamoqda. Mazkur turdagi jinoyat natijasida uning ishtirokchilari har yili ko'plab miqdorda daromad olayotgani sababli ham bu noinsoniy qilmish tobora kengroq ko'lam kasb etyapti.

Shahvoniy maqsadlarda bolalarni ekspluatatsiya qilish, kishilarni majburiy mehnatga jalb qilish, tilanchilik, donor organlari qora bozorining mavjudligi odam savdosi jinoyatining oqibatlaridir.

Ayrim mamlakatlarda odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosi shunchalik keng tarqalganki, hatto muayyan millatlar genofondiga va milliy xavfsizligiga real xavf tug'dira boshladi. Bunday vaziyatda har qanday mamlakat mazkur jinoiy faoliyatga qarshi kurashning barcha zaruriy choralarini ko'rishi shart. Modomiki, O'zbekistonda ham bu jinoiy to'dalar o'z qilmishlarini amalga oshirmoqdan qaytmayotgan ekan, ularga o'z vaqtida va samarali zarba berish butun jamiyatning muhim vazifasiga aylanmog'i kerak.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ekspluatatsiya qilish maqsadida odamlar savdosi bilan bog'liq muammolar davlatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan dolzarb, deb hisoblandi. Mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar fonida, xususan, chegaralarning ochilishi va aholi xalqaro migrastiyasining kuchayishi, shuningdek, iqtisodiyotdagi o'tish davri bilan bog'liq qiyinchiliklar, fuqarolar turmush darajasining pasayishi natijasida kriminogen vaziyatning yomonlashuvi hamda odamlarni shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan harakatlardan jabrlanganlar sonining o'sishi kuzatila boshladi. Aksariyat hollarda, jabrlanuvchilar respublikadan tashqariga olib chiqilib, chet elda g'ayriqonuniy ravishda ushlab turilgan. Aynan shu sababdan mamlakatimiz qonun chiqaruvchi organi tomonidan 1994 yilda sobiq ittifoq hududida birinchilar qatorida shahvoniy yoki boshqa maqsadlarda odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash uchun javobgarlik nazarda tutilgan modda jinoyat qonuniga kiritildi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartish va

qo'shimchalarga ko'ra, Jinoyat kodeksimizning 1q5- moddasi «Odam savdosi» deb nomlandi va odam savdosi uchun javobgarlikni belgilovchi jinoiy-huquqiy normalar takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining 1q5-moddasi dispozitsiyasida odam savdosi jinoyatining tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: «*Odam savdosi*, ya'ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish»dir.

Rustamboev M.X. yozishicha odam savdosi jinoyatining ob'ekti avvalo shaxsning erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyatning og'irlashtiruvchi yoki alohida og'irlashtiruvchi tarkiblarida jabrlanuvchilarning hayoti yoki sog'lig'i qo'shimcha ob'ekt sifatida namoyon bo'ladi⁵. Chunonchi, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohasining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi bir qator normalar mavjud.

Demak, odam savdosi jinoyatining *ob'ektini* shaxsning ozodligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Odam savdosi jinoyatining sodir etilishi natijasida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish bilan bog'liq jinoyat qonuni bilan muhofaza qilinadigan ijtimoiy munosabatlar buzilishiga olib keladi. Shaxsga qarshi jinoyatlarning xavflilik darajasi yuqori ekanligi va Konstitustiyamizda shaxsning oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan daxlsiz huquq va erkinliklarini himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri ekanligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining birinchi bo'limida «Shaxsga qarshi jinoyatlar» keltirilgan. Jinoyat kodeksimizning «Shaxsga qarshi jinoyatlar» bo'limida hayotga, sog'liqqa qarshi, hayot yoki sog'liq uchun havfli, jinsiy

⁵ Қаранг: *Рустамбоев М.Х.* Одам савдоси. – Т.: ТДЮИ нашриёти, 2009. – Б. 11.

erkinlikka, oilaga, yoshlarga va ahloqqa, shaxsning ozodligi, sha'ni, qadr-qimmatiga, fuqarolarning konstitustiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi qaratilgan jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, bu jinoyatlar jamiyat uchun jiddiy xavf tug'diradi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 6 - bobida shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr - qimmatiga tajovuz qiluvchi jinoyatlarni nazarda tutadi. Odam savdosi shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatiga tajovuz qiluvchi jinoyatlar ichidagi ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lgan eng og'ir jinoyatdir.

Mazkur jinoyatning *ob'ektiv tomoni* quyidagi qilmishlarni sodir etishda ifodalanadi:

1) odamni olish-sotish.

Odamlardan foydalanish maqsadida, ularni:

2) yollash;

q) tashish;

4) topshirish;

5) yashirish;

6) qabul qilish.

I. Fozilovning yozishicha, *odamni olish - sotish* deganda, birinchi tomon haq yoki boshqacha kelushuv evaziga o'z foydasiga shaxsni egaligiga o'tkazish hamda ikkinchi tomon esa, huddi shunday kelishuv asosida uni boshqa shaxsning egaligiga sotib yuborishi tushuniladi. Bunda odamni sotayotgan shaxs bunday holatni angalaganligi ahamiyatga ega bo'lmaydi. Bunday vaziyatni aybdor odam haq evaziga yoki boshqa kelishuv asosida o'tkazganligini o'zi kifoyadir. Odamni sotib olish uchun to'lanadigan kelishuv, pul (milliy valyuta yoki boshqa chet el davlatining banknot birliklari, valyuta) ko'char yoki ko'chmas mulk yoki unga bo'lgan huquq, shuningdek mulkiy manfaat yoki mulkiy naf berish, qarz evaziga qoplash va boshqa shu kabilarda namoyon bo'lishi mumkin⁶.

⁶ Фозилов И.Ю. Одам савдоси жиноятининг ҳуқуқий тавсифи // Ўзбекистонда диний ва дунёвий қадриятлар уйғунлиги. Илмий-амалий конференция материаллари, Тошкент

Yollash deganda, u yoki bu shaxsga qonuniy ish sifatida muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishni va bunday faoliyatni manfaatdor bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan qo'llab - quvvatlanishini va'da qilgan holda oshkora yoki aldash yo'li bilan muayyan mehnat turini yoki boshqa foaliyatni taklif qilish tushuniladi.

Tashish deganda, odamni undan foydalanayotganligini anglagan yoki anglamaganligidan qa'ti nazar uni har qanday transport vositasida rasmiy yoki norasmiy ravishda sotayotgan yoki olayotgan shaxs ishtirok etmagan holda boshqa chet el davlatiga yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa hududiga faktik ko'chirishni, shuningdek, yollangan shaxslarni ko'chirishni tashkil qilish bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirish (masalan, vizalar, biletlar, shaxsiy hujjatlar va boshqalarni rasmiylashtirish) tushuniladi.

Topshirish deganda, odamlarni haq evaziga yoki boshqacha ko'rinishdagi kelishuv asosida, taqsimlash, almashtirish, sovg'a qilish, garov sifatida foydalanish va shu kabilar tushuniladi.

Yashirish deganda, odam savdosidan jabrlanganlarni va ularni turar joyini aniqlash bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini murakkablashtirishga qaratilgan har qanday qilmishlar, hamda unga qarindoshlar yoki boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan to'sqinlik ko'rsatishi (masalan, vaqtincha yashab turishlari uchun uy-joy taqdim qilish, qalbaki hujjatlarni tayyorlash, bila turib yolg'on ma'lumotlar berish va sh.k.) tushuniladi.

Qabul qilish deganda, odamni olish yoki sotish bilan bog'liq bo'lgan kelishuvlarni tashkil qiluvchi vositachining qilmishlarini (odamni olish yoki sotish bilan bog'liq kelishuvlarini bevosita tashkil qiluvchi ishtirokchilar, mazkur jinoyatning bajaruvchilari sifatida tan olinadi) yoxud odam savdosi jabrlanuvchilaridan foydalanish maqsadida ularni qabul qilib olish bilan shartlangan har qanday qilmishlar tushuniladi.

Mazkur jinoyat odamni olish yoki sotish shaklidagi kelishuvlar (bunda odam savdosidan jabrlangan shaxs uchun to'liq to'lov amalga oshirilishi talab etilmaydi)

yoki jinoyatning ob'ektiv tomonini tashkil qiluvchi yuqorida sanab o'tilgan harakatlarni birortasi yoxud jami sodir etilgan vaqtdan boshlab tugullangan hisoblanadi.

Odam savdosi bilan bog'liq yuqorida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etishni kelishish harakatlari mazkur jinoyatga tayyorgarlik ko'rish sifatida kvalifikatsiya qilinadi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 25-m. 1-q. 1q5-m.).

Odam savdosi jinoyati sodir etilishi turli usullarda sodir etilishi mumkin, ya'ni **a)** kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqa majburlash shakllaridan foydalanish; **b)** o'g'irlash; **v)** firibgarlik; **g)** aldash; **d)** hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali; **e)** boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'dirib olish orqali.

Sub'ektiv tomondan mazkur jinoyat aybning to'g'ri qasd shaklida ifodalanadi.

Odamni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish bilan bog'liq qilmishlarga huquqiy baho berishda, aybdorda odamlardan foydalanish maqsadi mavjud ekanligini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1q5-moddasi ikkinchi qism «k» bandida (kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) maqsadida sodir etilgan bo'lsa) belgilangan qilmishda esa kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) maqsadida odam savdosi bilan shug'ullanayotganligini aniqlash lozim, chunki mazkur holatlar jinoyatning zaruriy belgisi sifatida nazarda tutilgan.

Mazkur jinoyatning *sub'ekti* 16 yoshga to'lgan har qanday jismoniy shaxslar (odamni oluvchi, sotuvchi, yollovchi, tashuvchi, topshiruvchi, yashiruvchi yoki qabul qiluvchi) bo'lishi mumkin. Bunday shaxslar, jabrlanuvchining yaqin qarindoshlari yoki uning yaqinlari ham bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, odam savdosi insonning yuksak e'zozga loyiq bo'lgan konstitustiyaviy huquq va erkinliklarini buzuvchi va shaxsiy daxlsizligiga tahdid soluvchi jamiyatdagi salbiy illatlardan biridir. Binobarin, eng oliy qadriyat inson, uning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, qadr-qimmati ekanligi to'g'risidagi tamoyil

Konstitutiya darajasida mustahkamlab qo'yilgan. Bu konstitutiya talabni hayotga tatbiq etish uchun odam savdosi kabi jamiyatdagi salbiy illatlarga qarshi kompleks ravishda kurash olib borish lozim. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimi islohatlarining bosh maqsadlaridan biri insonning konstitutiya huquq va erkinliklarining samarali muhofaza etilishini ta'minlashdir.

Jinoyat kodeksi 1q5-moddasi mamlakatimiz jinoyat qonuniga kiritilgan yangi normalardan bo'lib, 2008 yil 17 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan yangi tahrirda qonunga kiritilgan. **JK 1q5-moddasining** avvalgi tahririda faqat ekspluatasiya qilish maqsadida aldash yo'li bilan odam yollash uchun javobgarlik nazarda tutilib, unda xalqaro huquqiy hujjatlarda zikr qilingan odamlar savdosi bilan bog'liq bo'lgan jinoiy qilmishlar kompleksi qamrab olinmagan edi. Bu hol amalda fuqarolar erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini to'liq muhofaza qilinishini ta'minlay olmas edi. Bundan tashqari, fohishalarni ekspluatasiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan odam savdosi to'g'risidagi BMTning 1949 yilgi Konventiyasidan farqli ravishda, O'zR JK 1q5-moddasi yangi tahrirda odamlarni har qanday maqsadda ekspluatasiya qilganlik uchun aniq javobgarlik nazarda tutildi.

JK 1q5-moddasida nazarda tutilgan qilmish, avvalo, shaxsning erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini kafolatlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiladi. Jinoyatning og'irlashtiruvchi yoki o'ta og'irlashtiruvchi tarkiblarida jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'i **qo'shimcha ob'ekt** sifatida namoyon bo'ladi.

JK 1q5-moddasi tasvirlov dispozitsiyadan iborat. Mazkur jinoyatning **ob'ektiv tomoni** – odam savdosi, ya'ni odamni ekspluatasiya qilish maqsadida uni olish-sotish yoki yollash, tashish, topshirish, yashirish yoxud qabul qilishda namoyon bo'ladi.

Ko'rib chiqilayotgan moddaning biror qismida nazarda tutilgan harakatlardan bittasi sodir etilsa, uni sodir etgan shaxs javobgarlikka tortiladi.

Bordi-yu, qilmishda mazkur moddaning 2- yoki q-qismi turli bandlarida ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lsa, ushbu qismlarning tegishli bandlari bo'yicha ham javobgarlik vujudga keladi.

Odam savdosi **JK 1q5-moddasi 1-qismida** nazarda tutilgan qilmish, ya'ni odamni ekspluatatsiya qilish boshlangan yoki boshlanmaganidan qat'i nazar, uni olish-sotish, yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish harakatlaridan birortasi sodir etilgan vaqtdan **tamom bo'lgan** hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni q-moddasida "odamlar savdosi", "yollash", "tashish", "topshirish", "yashirish" va "qabul qilish" kabi harakatlar (xulq-atvor shakllari) nisbatan turdosh tushuncha sifatida berilgan. Biroq JKda ko'rib chiqilayotgan modda mazmunidagi mazkur tushunchalar bir-biridan mohiyatiga ko'ra ajratilgan.

Odam savdosi insonni olish, sotish, ya'ni u (odam)ning sotuvchiga berilgan pul yoki boshqacha mulkiy ekvivalent (ko'char yoki ko'chmas mulk, mulkiy manfaat, mulkiy yoki pul qarzidan voz kechish) evaziga sotib oluvchining egaligiga o'tishini anglatadi.

Jabrlanuvchi o'zini sotib oluvchining egaligiga amalda topshirgan paytidan qat'i nazar "tovar" uchun to'lov amalga oshirilgan paytdan boshlab odamni olish-sotish tamom bo'lgan, deb hisoblanishi kerak. Agarda jinoyatchilar o'rtasida (bir tomondan sotuvchi va ikkinchi tomondan sotib oluvchi) odamni olish-sotish to'g'risida kelishilgan, biroq u yoki bu sabablarga ko'ra rejalashtirilgan bitim amalga oshirilmagan bo'lsa, ularning qilmishi JK 25-moddasi 1-qismi orqali JK 1q5-moddasi bilan kvalifikatsiya qilinishi kerak.

Yollash odam savdosining bir ko'rinishi bo'lib, odamlarni biror faoliyatga, ushbu holda ekspluatatsiyaga jalb qilishdan iboratdir. Shaxsni olish-sotishdan avval doimo u yollanadi va odatda, yollash aldov yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shaxsga nisbatan zo'rlik ishlatib, uni qo'rqitib yoki boshqa majburlov choralarini qo'llab yollash, ro'y bergan oqibatlariga ko'ra, **JK 1q5-moddasi 2-yoki q-qismi** bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Yollanayotgan shaxsning roziligini olishga qaratilgan harakatlar (masalan, nomzodlarni topish, xohlovchilarni ro'yxatga olish, ular bilan avvaldan qandaydir "bitim" tuzish va h.k.) boshlangan vaqtdan e'tiboran, uning roziligi olingan yoki olinmaganligidan qat'i nazar, qilmish tamom bo'lgan hisoblanadi.

Shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun odamlarni yollashni fohishalik bilan shug'ullanishga jalb qilishdan, ya'ni JK 1q1-moddasida javobgarlik nazarda tutilgan qo'shmachilikdan farqlash kerak. Bunda jinoyatchi tomonidan ko'zlangan maqsad va tajovuz ob'ektiga ko'ra jinoyatlar bir-biridan farqlanishi lozim. Birinchi navbatda aybdor o'z harakatlarining oqibatlarini anglaganligi aniqlanishi lozim. Agar yollangan shaxsning erkinligi cheklanishi, noqulay ahvolga tushishi mumkinligi va boshqa shaxslarga butunlay qaram bo'lishi uni yollagan shaxsga oldindan ayon bo'lsa, bunday yollashni odamni keyinchalik ekspluatatsiya qilish maqsadida amalga oshirilgan deyish uchun to'la asos bor, deb hisoblash mumkin. Qo'shmachilikda esa fohishalik bilan shug'ullanishga jalb qilgan aybdor faqat g'araz maqsadni ko'zlaydi, yollashning o'zi esa yollanayotgan shaxsning fohishalik bilan shug'ullanishga ixtiyoriy roziligini olishga qaratiladi va barcha shartlar oldindan kelishib olinadi. Bunday vaziyatda yollanayotgan shaxsning erkinligi cheklanmaydi.

Shaxsni **tashish** deganda, uni bir hududdan boshqa bir hududga, jumladan, bitta aholi punktidan har qanday transport vositasidan foydalanib, boshqa erga ko'chirish tushuniladi. Ushbu harakatning oldi-sotdidan oldin yoki keyin sodir etilganligining ahamiyati yo'q va jabrlanuvchi mo'ljallangan joyga ko'chirila boshlagan paytdan e'tiboran tamom bo'lgan hisoblanadi.

Shaxsni **topshirish** odam savdosida ishtirok etayotgan vositachining harakatlarida, shuningdek, uni ekspluatatsiya qilish maqsadida sotib olgan shaxs tomonidan o'z maqsadini amalga oshirish uchun uni boshqa shaxsga vaqtinchalik joylashtirish yoki yashash uchun topshirishida namoyon bo'lishi mumkin. Bunda topshirish ham evaziga (masalan, muayyan mablag' evaziga), yoki tekinga (masalan, sovg'a qilish), butunlay yoki muayyan muddatga, muayyan shartlarni bajarish bilan bog'liq holda yoki hech qanday shartsiz bo'lishi mumkin va

jabrlanuvchi bir kishi tasarrufidan boshqasining tasarrufiga o'tgan paytdan boshlab qilmish tamom bo'lgan hisoblanadi.

Yashirish deganda, jabrlanuvchini oldi-sotdi harakatlariga qadar va undan keyin yashirish (masalan, odamni uyning erto'lasiga yoki boshqa joylarga yashirib qo'yish) nazarda tutiladi va shaxsni yashirishga qaratilgan har qanday harakat sodir etilgan vaqtdan boshlab harakat tamom bo'lgan hisoblanadi.

O'z navbatida **qabul qilish** jabrlanuvchini o'z tasarrufiga olishda ifodalanadi (topshirishga qarama-qarshi harakat).

Odamlar savdosi **sub'ektiv tomondan to'g'ri qasd** bilan va qonunda ko'rsatilganidek, ekspluatatsiya qilish maqsadida sodir etiladi. Aybdor insonni ekspluatatsiya qilish maqsadida olish-sotish yoki uni yollash, tashish, topshirish, yashirish, qabul qilish harakatlarini amalga oshirayotganligini angelaydi va shu harakatlarni amalga oshirishni istaydi. Shaxsni JK 1q5-moddasi bilan javobgarlikka tortish uchun ekspluatatsiya qilish maqsadiga erishgan-erishmaganligining ahamiyati yo'q. Muhimi, jinoyat sub'ektining jabrlanuvchini shaxsan ekspluatatsiya qilish istagi bo'lganligi yoxud bunday maqsad boshqa shaxs ishtirokchilarning rejalariga kirganligini oldindan aniq bilganligidir. Masalan, jabrlanuvchini shahvoniy qullikka sotishni amalga oshirayotgan sub'ekt, jabrlanuvchining boshqa shaxslar tomonidan shahvoniy ekspluatatsiya qilinishi muqarrarligini angelaydi va aynan shuni xohlab o'zining jinoiy harakatlarini amalga oshiradi. Va aksincha, shaxsni o'z egaligiga olayotgan sub'ekt keyinchalik uni shaxsan o'zi ekspluatatsiya qiladi.

Jinoyat kodeksining sakkizinchi bo'limi qoidalariga muvofiq, "Odamlarni **ekspluatatsiya qilish** – boshqa shaxslarni fohisha sifatida yoki shahvoniy maqsadlarda ekspluatatsiya qilish, majburiy mehnat yoki majburiy xizmat ko'rsatish, qullik yoki qullikka o'xshash odatlar, qaram holat yoki insonning a'zo xud to'qimalarini kesib olish"ni anglatadi.

Boshqa shaxslarni fohisha sifatida yoki boshqa shaklda shahvoniy ekspluatatsiya qilish deganda, aybdorning ixtiyoriga ko'ra jabrlanuvchini jinsiy aloqalarga kirishish, biror shaxsning jinsiy ehtiyojlarini g'ayritabiiy usulda

qondirish yoki boshqa shaxslarning ixtiyoriga ko'ra shahvoniy xususiyatdagi boshqacha harakatlarni bajarishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish tushuniladi.

Majburiy mehnat yoki xizmat ko'rsatish deganda, tegishli ravishda, aybdorning ixtiyoriga ko'ra jabrlanuvchini muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga yoxud u yoki bu turdagi xizmat (shahvoniy xizmat ko'rsatish bundan mustasno) ko'rsatishga majbur bo'ladigan sharoitga solib qo'yish tushuniladi. Ta'kidlash joizki, xalqaro huquq normalarida qo'llaniladigan “zo'raki yoki majburiy mehnat” atamasi “bajarish uchun o'z xizmatini ixtiyoriy ravishda taklif qilmagan shaxsdan jazo qo'llash tahdidi bilan talab qilinadigan mehnat yoki xizmat”ni^{7[1]} bildiradi.

Qullik majburiy mehnatning eng og'ir va xavfli shakli bo'lib, “shaxsga nisbatan egalik huquqi yoki uning ayrim atributlari qo'llanilishi”ni^{8[2]} anglatadi. Odam savdosi va g'ayriiqtisodiy ravishda mehnatga jalb qilish har doim ham qullikning o'ziga xos xususiyati bo'lib kelgan.

Majburiy (qullar) mehnatdan, odatda, norasmiy va xufyona iqtisodiyotda, maxfiy (yashirin) ishlab chiqarishda, shuningdek, uy-ro'zg'or ishlarida foydalaniladi.

Qullikka o'xshash odatlarga insondan uy-ro'zg'or ishlarida, qurilish yoki qishloq xo'jaligida foydalanish, majburiy ravishda homilador bo'lish, kasal yoki qariya qarindoshlariga, bolalarga xizmat ko'rsatish kiradi. Bunday odatlar, aksariyat hollarda oilaviy yoki qarindoshlik munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Qaram holat shaxsning qullikka o'xshash holatga solib qo'yilishidir. Bunday holatga bolalar yoki nogironlarning tilanchilik qilishga majburlashni kiritish mumkin.

JK 1q5-moddasi dispozitsiyasida “ekspluatatsiya” atamasi “foydalanish” mazmunida qo'llanilgan bo'lib, unda odamni nafaqat biror bir faoliyatga jalb

^{7[1]} Мажбурий меҳнат тўғрисидаги 29-Конвенция (Женева 28.06.1930) Халқаро Меҳнат ташкилотининг Бош Конференцияси 14-сессиясида Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 30 август қабул қилингандаги қарори билан ратификация қилинган.

^{8[2]} Конвенция о рабстве (Женева, 1926й 25 сентябр)

qilish, balki uning a'zo va to'qimalarini kesib olib ulardan foydalanish ham nazarda tutiladi. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, odam savdosining ob'ektiv tomonini tashkil qiluvchi sodir etilgan biror bir harakatda transplantant olish maqsadining mavjudligi, mazkur qilmishning **JK 1q5-moddasi 1-qismi** bilan kvalifikastiya qilinishini inkor etadi, mazkur og'irlashtiruvchi holat ushbu moddaning 2 qismi "k" bandi bilan kvalifikastiya qilinishi zarur.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, odam savdosi, jinoiy maqsadga erishilganligi, buning oqibatida muayyan moddiy oqibatlarning kelib chiqqanligi yoki kelib chiqmaganligidan qat'i nazar, dispozistiyada ko'rsatilgan harakatlardan birortasi sodir etilgan vaqtdan e'tiboran tamom bo'lgan, deb topiladi va amalda kelib chiqqan oqibatlar JK Maxsus qismining tegishli moddasi bo'yicha alohida kvalifikastiya qilinishi lozim. Bunday hollarda:

Odam savdosidan jabrlangan shaxs shahvoniy qullikka solinganida JK 118-moddasi (Nomusga tegish) yoki JK 119-moddasi (Zo'rlik ishlatib jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish); shahvoniy ekspluatasiya qilish fohishalik bilan shug'ullanishga majbur etish orqali amalga oshirilgan bo'lsa, JK 121-moddasi (Ayolni jinsiy aloqa qilishga majbur qilish); bolalardan tilanchilikda foydalanilganda JK 127-moddasi (Voyaga etmaganlarni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish);

JK 1q5-moddasi 2-qismi nazarda tutilgan transplantant olish maqsadida amalga oshirilgan hollarda JK 97-moddasi 2-qismi "n" bandi (Kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish yoki murdaning qismlaridan foydalanish maqsadida qasddan odam o'ldirish) yoki JK 104-moddasi (Qasddan badanga og'ir shikast etkazish) sifatida kvalifikastiya qilinadi.

Biroq shaxs shahvoniy maqsadda ekspluatasiya qilinib, pornografik suratlarga tushishga majbur etilgan yoki qullikka xos majburiy mehnatga jalb qilish hollarida mazkur qilmishlarga yuridik baho berish ancha murakkabdir. Binobarin, aybdorni javobgarlikka tortish imkoniyati mavjud ekanligi yoki yo'qligi masalasi vujudga keladi. Bu hol JKda mazkur qilmishlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan normalarning mavjud emasligi bilan bog'liqdir. Bunday

vaziyatlarda aybdorni faqat qiynash (bu ham faqat ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun aybdor, jabrlanuvchini muttasil ravishda do'pposlagan yoki JK 110-moddasi tarkibi bilan qamrab olingan boshqa harakatlarni qilganida), zo'rlik ishlatib, g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish yoki (jabrlanuvchining o'z joniga qasd qilgan hollarda) o'zini o'zi o'ldirish darajasiga etkazganlik uchun javobgarlikka tortish mumkin.

JK 1q5-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatning **sub'ekti** aqli raso 16 yoshga to'lgan shaxs bo'ladi.

Agar jinoyat:

a) o'g'irlash, zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoxud boshqa majburlov choralarini qo'llash orqali;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

v) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsga nisbatan;

g) aybdorga moddiy yoki boshqa jihatdan qaram bo'lgan shaxsga nisbatan;

d) takroran yoki xavfli restidivist tomonidan;

e) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

j) xizmat mavqeidan foydalangan holda;

z) jabrlanuvchini O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasidan olib o'tgan yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda;

i) qalbaki hujjatlardan foydalangan holda, xuddi shuningdek, jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni olib qo'ygan, yashirgan yoxud yo'q qilib yuborgan holda;

k) kishi a'zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko'chirish (transplantat) maqsadida sodir etilgan bo'lsa, **JK 1q5-moddasi 2-qismida** nazarda tutilgan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi.

Jabrlanuvchini o'g'irlash, unga nisbatan zo'rlik ishlatish, bunday zo'rlikni ishlatish bilan qo'rqitish, shuningdek, majburlashning boshqa shakllarini qo'llash **JK 1q5-moddasi 2-qismi "a" bandi** bilan kvalifikastiya qilinadi.

Odam o'g'irlash jabrlanuvchini yashirin ravishda, ochiqdan-ochiq yoki aldash yoxud ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan qo'lga olish va keyinchalik

uni olish-sotish, topshirish va h.k. harakatlarni amalga oshirish maqsadida uni doimiy yoki vaqtincha turar joyidan, aybdorning ixtiyoriga ko'ra boshqa joyga ko'chirishdir.

Mazkur holatda **zo'rlik ishlatish** jabrlanuvchiga nisbatan olish-sotish yoki boshqa harakatlarni amalga oshirish maqsadida uni do'pposlash, qiynash, zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish, badaniga engil yoki o'rtacha og'ir shikast etkazishni anglatadi. Bunday hollarda qilmish to'lig'icha **JK 1q5-moddasi 2-qismi "a" bandi** bilan qamrab olinadi va qo'shimcha ravishda JK Maxsus qismi boshqa moddasi bilan kvalifikastiya etilishi talab qilinmaydi. O'g'irlagan jabrlanuvchi o'ldirilgan yoki uning badaniga og'ir shikast etkazilganida, qilmish qo'shimcha ravishda JK 97-moddasi yoki 104-moddasi bilan kvalifikastiya qilinishi kerak. Zo'rlik ishlatish jarayonida ehtiyotsizlik orqasidan jabrlanuvchi hayoti yoki sog'lig'iga yuqorida ko'rsatilgan zarar etkazilsa va jabrlanuvchining o'limi yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan aybdor **JK 1q5-moddasi q-qism "b" bandi** bilan javobgarlikka tortilishi kerak.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, odam savdosi insonning yuksak e'zozga loyiq bo'lgan konstitustiyaviy huquq va erkinliklarini buzuvchi va shasiy daxlsizligiga tahdid soluvchi jamiyatdagi salbiy illatlardan biridir. Binobarin, eng oliy qadriyat inson, uning hayoti, sog'lig'i, erkinligi, qadr-qimmati ekanligi to'g'risidagi tamoyil Konstitustiya darajasida mustahkamlab qo'yilgan. Bu konstitustiyaviy talabni hayotga tatbiq etish uchun odam savdosi kabi jamiyatdagi salbiy illatlarga qarshi kompleks ravishda kurash olib borish lozim.

1.2. Odam savdosi transmilliy jinoyat

Hozirda odam savdosi global xavfsizlik, jamiyat barqarorligi, jahon hamjamiyatining rivojlanishiga tahdid solayotgan jinoyat sifatida baholanmoqda. U xavflilik darajasi bo'yicha noqonuniy qurol-yarog' sotish va narkobiznes kabi transmilliy jinoyatlar bilan bir qatorga qo'yilmoqda. Odam savdosi transchegaraviy, kompleks xarakterga ega, uyushgan guruhlar tomonidan sodir etilayotgan juda keng tarqalgan jinoyat bo'lib, unda inson «tovar»ga aylantiriladi. Amalda esa bu «qullikning» zamonaviy shaklidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra dunyoda xar yili 2 million 700 ming kishi odam savdosi qurboni bo'ladi. Bu esa odam savdosi halqaro jinoyatchilikning serdaromad moliyaviy manbaiga aylanganligini ko'rsatib, bu fikr ekspertlarning xulosalariga qaraganda odam savdosidan yiliga ko'riladigan daromad 7 mlrd AQSh dollaridan oshayotganligi bilan tasdiqlanadi. O'zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonunining q-moddasiga ko'ra *«Odam savdosi – kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish yoxud boshqacha majburlash shakllaridan foydalanish, o'g'irlash, firibgarlik, aldash, hokimiyatni suiiste'mol qilish yoki vaziyatning qaltisligidan foydalanish orqali yoxud boshqa shaxsni nazorat qiluvchi shaxsning roziligini olish uchun uni to'lovlar yoki manfaatdor etish evaziga og'lirib olish orqali odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish. Odamlardan foydalanish boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanishni yoki ularni shahvoniy foydalanishing boshqa shakllarini, majburiy mehnat yoki xizmatlarni, qullik yoki qullikka o'xshash odatlarni, erksiz holat yoxud inson a'zolari yoki to'qimalarini ajratib olishni anglatadi»*.

Xalqaro migratsiya tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar odamlarni nafaqat jinsiy yoki mehnat ekspluatatsiyasi uchun, balki ularning ichki organlarini transplantatsiya qilish, narkotik moddalarni tarqatish, boshqa turdagi jinoyatlar sodir etish uchun ham yollab majburlamoqdalar. Sud-tergov amaliyoti natijalarining tahlil etilishi

odam savdosi jinoyatlarining uyushgan guruh a'zolari tomonidan bir necha bosqichlarda sodir etilishini ko'rsatadi.

1-bosqich – jabrlanuvchilarni yollash, xujjatlarni rasmiylashtirish;

2-bosqich – chegaradan (qonuniy yoki noqonuniy) o'tkazish;

3-bosqich – chet mamlakatda jabrlanuvchilarni kutib olinishi, xujjatlarini olib qo'yilishi, sotilishi;

4-bosqich – sotib olinishi va ekspluatatsiya qilinishi. Yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni jinoiy guruhning quyidagi ishtirokchilari amalga oshiradi:

a) yollovchi

b) jabrlanuvchini chegaradan o'tkazish yoki chiqib ketishini ta'minlaydigan shaxs

v) jabrlanuvchilarni belgilangan davlatda kutib oluvchi va sotuvchi shaxs

g) jabrlanuvchini sotib oluvchi va ekspluatatsiya qiluvchi shaxs . Alohida ta'kidlanishi lozim bo'lgan holat shundan iboratki, shahvoniy va boshqa g'araz maqsadlarda yollangan ayollarning asosiy qismi «iste'molchi» davlatlar – Birlashgan Arab Amirliklari, Saudiya Arabistoni va Turkiya mamlakatlariga yuborilgan. Fuqarolarimiz chet davlatlarga «tranzit» mamlakatlar Qirg'iziston, Qozog'iston, Rossiya, Ukraina, Armaniston, Ozarbayjon Respublikalari orqali olib chiqilgan. Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 85-90 foizi Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikalarida tekin ishchi kuchi sifatida foydalanib ekspluatatsiya qilingan. Jinsiy ekspluatatsiya jarayonida jabrlanuvchilardan ko'chada, fohishalik uylarida, striptiz klublarda, restoran va barlarda, saunalarda, uqalash salonlarida, shaxsiy uylarda o'z xizmatlarini mijozlarning hohishiga ko'ra barcha turdagi jinsiy xizmatlarni taqdim etishi talab qilinadi va sutkalab ekspluatatsiya qilinadi.

Jabrlanuvchilarning bo'ysinishini ta'minlash maqsadida shaxsiy xujjatlarini olib qo'yish; yo'l harajatlari uchun qarz ekanligi va uni ishlab qutilishi lozimligini uqtirish; boshqa insonlar bilan aloqa qilinishini mutlaqo cheklash, yopiq xonadonlarda saqlash, doimiy nazoratda ushlab; mahalliy huquqni muxofaza qiluvchi organlarga murojaat qilmasligi uchun, javobgarlikka tortilishi va deportatsiya qilinishi bilan qo'rqitish; ularga yoki ularning yaqinlariga nisbatan

jismoniy yoki boshqa turdagi zo'rovonlikni qo'llash bilan qo'rqitish qo'llaniladi. Agarda kvalifikatsiya masalasiga qaraydigan bo'lsak, Jinoyat kodeksining 1q5-moddasida ko'rsatilgan jinoyat formal tarkibli jinoyatlarga taalluqli bo'lib, yollovchi bilan jabrlanuvchi o'rtasida og'zaki yoki yozma shakldagi bitim tuzilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi. Bunda aybdor shaxs faqat «yollash» bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoyatning keyingi bosqichlari amalga oshirilishiga qarab aybdorlarni tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish uchun va boshqa og'irlashtiruvchi holatlar bo'yicha javobgarlikka tortilishi belgilangan. O'zbekiston Respublikasida ushbu turdagi jinoyatlarga qarshi kurash Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1950 yildagi "Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvenciyasi, 2000 yil 15 noyabrdagi "Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida"gi Konvenciya hamda «Odam savdosi, ayniqsa bolalar va ayollarni sotishning oldini olish, unga chek qo'yish va buning uchun jazolash» to'g'risidagi qo'shimcha protokol (2002 yil 12 dekabrda ratifikatsiya qilingan), O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida"gi 2008 yil 17 aprel Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining odam savdosi bilan bog'liq 135- moddasining yangi tahriri (o'zgartirilgan va aynan odam savdosi jinoyatini kvalifikatsiya qilish uchun moslashtirilgan) asosida amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2008 yil 8iyuldagi «Odam savdosiga qarshi kurash samaradorligini oshirish bo'yicha choralar to'g'risidagi» Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarligida «Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha Respublika idoralararo komissiyasi» va hududiy komissiyalari tashkil etilib, bugungi kunda faoliyat olib bormoqda. Ushbu komissiyaning majlisida odam savdosiga qarshi kurash chora-tadbirlarining viloyatlarda amalga oshirilishi holati muntazam ravishda muhokama etilib borilmoqda, hamda ularda amalga oshirilayotgan ishlarning darajasi emasligi ko'rsatib o'tilib, kamchiliklarni bartaraf etish vazifalari yuklatilmoqda. Yuqoridagilar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 5 noyabrdagi qarori bilan «Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va

ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitasiya Markazi» tashkil etilganligini alohida ta'kidlash lozim. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, mamlakatimizda odam savdosi jinoyatlariga qarshi kurash bo'yicha e'tiborli ishlar amalga oshirilayotganligini, ularning oldini olish va chek qo'yish bo'yicha chora-tadbirlar amalga qo'llanilayotganligini e'tirof etish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, Milliy tadbirlar rejasiga asosan Ichki ishlar vazirligi tomonidan Respublika Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsusta'lim, Sog'liqni saqlash hamda Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirliklari, Respublika «Mahalla» jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi va Toshkent shahar «Istiqbolli Avlod» yoshlar axborot-ma'rifat markazi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan «Aholining, ayniqsa voyaga etmaganlar, yoshlar va xotin-qizlarning huquqiy savodxonliklarini oshirish, ular orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada kuchaytirish hamda odamlardan foydalanish uchun ularni yollash bilan bog'liq va ahloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish» bo'yicha 2009-2010 yillar davomida hamkorlikda amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini ishlab chiqilib, ijroga qaratildi. Ushbu rejalar asosida joriy yilning o'tgan davrida shahar, tuman, qishloq, mahalla va ovullardagi fuqarolar, shuningdek, korxonalar va tashkilotlardagi ishchi va xizmatchilar, Oliy o'quv yurtlari talabalari, Akademik listeylar, Kasb-xunar kollejlari va umumta'lim maktab o'quvchilari orasida, bundan tashqari yashash va ish joyi noma'lum shaxslarni reabilitasiya qilish, voyaga etmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlarida jami 18 ming 890 marotaba davra suhbatlari, uchrashuvlar, savol-javob kechalari, seminarlar va shunga o'xshash tadbirlar o'tkazilib, ushbu tadbirlarda jami 1 mln. 256 ming 325 nafar ishchirokchilarning qatnashishi ta'minlanib, «OITS asr vabosi», «Odam savdosi-millatga qarshi illat», «Xavfsiz yo'l», «Bu haqda tengdoshingga gapirib ber» va shu kabi mavzularda uchrashuvlar o'tkazildi. O'tkazilgan tadbirlar natijalarini ommaviy-axborot vositalarida yoritish maqsadida 1404 marotaba, shundan ro'znomalarda 401 marotaba, radioda 764 marotaba hamda televideniya 239 marotaba chiqishlar tashkillashtirildi. Vazirlik Tergov bosh boshqarmasi xodimlari joriy yil davomida 17 marotaba «Odam savdosiga

qarshi kurashish, bunday jinoyatlardan jabrlangan shaxslarga yordam ko'rsatishning mexanizmlarini takomillashtirish» mavzusida o'tkazilgan davra suhbatlarida o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar. Jumladan: EXHT (OBSE) bilan hamkorlikda Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tashkil qilingan konferenstiyada 8 marotaba, Respublika Bosh prokuraturasida, IIV Akademiyasida va viloyatlarda o'tkazilgan konferenstiyalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2010 yil 3 fevral kungi 20/3417-sonli so'rovnomasiga asosan, joriy yilning 16 mart kuni Amerika Qo'shma Shtatlari elchisining siyosiy masalalar bo'yicha maslahatchisi X.Tomasxonim bilan Ichki ishlar vazirligida uchrashuv o'tkazildi. Joriy yilning 16 iyun kuni vazirlik Tergov bosh boshqarmasida Rossiya Federatsiyasi IIVning mas'ul xodimlari ishtirokida odam savdosi masalalariga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda, RF IIV qoshidagi Tergov qo'mitasining korrupciya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi boshlig'i general-mayor I.Cokolov va o'ta muhim ishlar bo'yicha katta tergovchisi mayor M.Klimova hamda \ Migratsiya masalalari bo'yicha xalqaro tashkilot vakili K.Boychenkolar qatnashdilar. Vazirlik rahbariyatining ko'rsatmasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari IIBlari hodimlari bilan Toshkent shahar «Istiqbolli avlod» yoshlar axborot-ma'rifat markazi hamkorligida o'quv seminar-mashg'ulotlari o'tkazildi. Shuningdek, komissiya raisining topshirig'iga ko'ra, joriy yilning 22-27 noyabr kunlari Respublika Bosh prokuraturasining Oliy o'quv markazida hududiy idoralararo komissiyalarining barcha mas'ul kotiblari ishtirokida o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Bundan tashqari bu borada xalqaro hamkorlikka ham keng e'tibor berilmoqda. Jumladan: vazirlik xodimlari boshqa huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari bilan hamkorlikda qator xalqaro anjumanlarda bo'lishib, tajriba almashib kelishmoqda. Ana shu anjumanlarda xalqaro ekspertlar tomonidan Respublikamizda bu borada muayyan ishlar amalga oshirilayotganligi e'tirof etilmoqda. Shuningdek, joriy yilning 19 sentyabr kuni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo davlatlarning Ichki ishlar vazirlari tomonidan odam savdosiga qarshi kurashish borasida xalqaro

kelishuv imzolandi. Ushbu hujjat, bugungi kunning talabi bo'lib, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish samaradorligini oshirishda, xalqaro hamkorlik munosabatlarini tartibga solishda va chet ellardagi jinoiy guruhlarning har bir a'zolariga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Ya'ni, mazkur hujjatga asosan MDH davlatlarining IIVdan xatto telefon orqali tezkor ma'lumotlar olishi mumkin. Bu ham jinoyatchilikka qarshi kurashishda xodimlarimizga bir muncha qulayliklar yaratdi. Joylardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, JKning 135-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda bir qator muammolar yuzaga kelayotganligi ma'lum qilingan. Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi JKning 1q5-moddasida ko'rsatilgan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda, jinoyatning sub'ektiv tomoniga etarli e'tibor berilmayapti, ya'ni yollagan shaxsning jinoiy maqsadi bo'lmasada, ishga yollashni o'zi jinoyat deb hisoblanmoqda. Tergovoldi hujjatlarida jinoyat ishini qo'zg'atishlikka to'sqinlik qilayotgan holatlarga (masalan, aybdorning jinoiy maqsadi bo'lgan-bo'lmaganligiga) e'tibor qaratish lozim. Ba'zi holatlarda yollagan shaxs uchun va'da qilingan oylik maoshi kamroq bo'lib qolishi, shaxs o'zining uquqsizligi yoki kerakli mutaxassislikka ega bo'lmasdan, topshirilgan ishni uddalay olmasligi natijasida ish joyini tashlab kelishi, majburiy mehnatga jalb qilinmaganligi, huquq va erkinliklari cheklanmaganligi, hozirda moliyaviy inqiroz tufayli chet eldagi ko'plab korxonalar va tashkilotlar ish haqini o'z vaqtida va to'liq to'lay olmaslik kabi holatlar mavjud bo'lib, bunday holatlarda yollagan shaxsning harakatlarida JKning 1q5-moddasida ko'rsatilgan jinoyat tarkibi mavjud bo'lmaydi, ya'ni maoshni o'z vaqtida olinmasligini odam savdosi jinoyati deb tushunmaslik lozim. Shuningdek, odamni olish-sotish, yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilishda foydalanish maqsadining yo'qligi sodir etilgan qilmishni odam savdosi sifatida baholab bo'lmaydi. Agarda kvalifikatsiya masalasiga qaraydigan bo'lsak, mazkur jinoyat formal tarkibli jinoyatlarga taalluqli bo'lib, yollovchi bilan jabrlanuvchi o'rtasida og'zaki yoki yozma shakldagi bitim tuzilgan paytdan boshlab jinoyat tugallangan hisoblanadi. Bunda aybdor shaxs faqat «yollash» bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortiladi. Jinoyatning keyingi bosqichlari amalga

o'shirilishiga qarab aybdorlarni tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish uchun va boshqa og'irlashtiruvchi holatlar bo'yicha javobgarlikka tortilishi belgilangan. Jinoyat ishi qo'zg'atishdan avval, chet elga borganidan so'ng jabrlanuvchini shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari kimda saqlanganligi, ish joyida o'zi mustaqil ravishda harakatlanish va ish joyini tashlab ketish imkoniyati bo'lgan-bo'lmaganligiga, qanday sharoitlarda ishlaganligiga, tutqinlikda ushlab turilganligiga, ishlash jarayonida qiynoqlarga solinganligiga, tazyiq o'tkazilganligiga, haqiqatdan ham chet elda majburiy mehnatga jalb qilinganligiga va jabrlanuvchining ko'rgazmalarini kimlar tasdiqlashiga va hokazolarga e'tibor qilish lozim. Ikkinchidan, «Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonunning 12-moddasida jabrlanuvchilar odam savdosi jinoyatining qurboni bo'lganligi inobatga olinib, ma'muriy, jinoiy va fuqarolik tartibidagi javobgarlikdan ozod qilinishi ko'rsatilgan. Qabul qilingan qonunning ham yutug'i shunda bo'lib, shu sababli 2008-2009 yillarda jabrlanuvchilarni ariza bilan murojaat qilishlari bir muncha ko'paygan. Demak, qachon va qanday holatlarda jabrlanuvchilarni javobgarlikdan ozod qilish masalalarini qonun osti normalarida aniq ko'rsatish lozim bo'ladi. Uchinchidan, huquqni muhofaza qilish organlari (HMQO) bilan o'zaro kelishuv asosida mazkur turdagi jinoyatlar yuzasidan ish qo'zg'atish tartibi belgilanmaganligi sababli, ichki ishlar idoralari tomonidan fuqarolarni odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar haqidagi arizalari tekshirilib, yakuniy qaror qabul qilingunga qadar, fuqarolar xuddi shu mazmundagi ariza bilan boshqa HMQOga murojaat qilganlarida faqatgina jabrlanuvchining arizasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish holatlariga yo'l qo'yilmoqda. Masalan: Fuqaro Maxmudov Muzaffar, tanishi B.Supiev va boshqa bir nechta fuqarolarni Qozog'iston Respublikasiga olib borib ishlatgan kunlari uchun, hech qanday haq bermasdan kelganligi yuzasidan to'plangan surishtiruv hujjatlari asosida, JKning 1q5-moddasi 1-qismi bilan 2008 yil 25 dekabr kuni fuqaro Maxmudov Muzaffarga nisbatan Oltinko'l tuman prokuraturasi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, 2009 yil 7 yanvarkuni jinoyat ishi tergov harakatlarini davom ettirishlik uchun Oltinko'l

tumani IIBga yuborilgan. Tergov harakatlari davomida, Maxmudov Muzaffar ularni sotib yubormaganligi, uning harakatlarida odamlardan foydalanish maqsadining yo'qligi, fuqarolar ixtiyoriy ravishda ishlash maqsadida Qozog'iston Respublikasiga borishganligi va ularni shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari o'zlarida bo'lganligi, majburiy mehnatga jalb qilinmaganliklari aniqlangan. Shu sababli 2009 yil 4 aprel kuni fuqaro M.Maxmudovning harakatlarida jinoyat alomatlari yo'q deb topilib, jinoyat ishi JPKning 83-moddasi 2-qismiga asosan tugatilgan.

To'rtinchidan, kelib tushayotgan arizalarda fuqarolar tomonidan etarli kasb-xunarga ega bo'lmagan holda, ishlash uchun boshqa davlatga chiqib

ketib, mehnat qonuniga ko'ra barcha hujjatlar rasmiylashtirilib, dastlabki oylar uchun ishlagan haqini olib kelgan bo'lsada, dunyoda bo'layotgan iqtisodiy inqiroz tufayli oylik maoshlarini o'z vaqtida ololmasliklari sababli, fuqarolar ularni ishga joylashtirish uchun olib ketgan shaxsni ariza bilan murojaat qilish holatlari ham uchramoqda. Yoki moddiy manfaatdor bo'lish maqsadida fuqarolardan yolg'on ko'rgazma berish hamda tuhmat qilish holatlari ham uchramoqda. Yuqorida ta'kidlanganidek, shunday mazmundagi arizalarning 50 tasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atish rad qilindi hamda 7 ta jinoyat ishi JPKning 83-moddasiga asosan tugatilgan. **Beshinchidan**, tergov harakatlari davomida O'zbekiston Respublikasi

fuqarosi chet davlat fuqarosi bilan jinoiy til biriktirganligi aniqlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga nisbatan jinoyat ishi ayblov xulosasi bilan sudga yuborilsada, shaxsi noma'lum chet el nisbatan alohida jinoyat ishi ajratilmoqda (ba'zi viloyatlarda ajratilmayapti). Chet el fuqarosini qidirib topish va jinoiy javobgarlikka tortish imkoniyati cheklangan. **Oltinchidan**, ushbu turdagi jinoyatlarning latentlik xususiyati, ya'ni jabrlangan fuqarolar o'z vaqtida yoki umuman huquqni muhofaza qilish idoralariga murojaat qilmasliklaridir. Shu sababli hisobotlarda o'tayotgan jabrlanuvchilar sonidan, amalda odam savdosidan jabr ko'rgan fuqarolar soni ko'proqni tashkil qilishi mumkin. Yana bir muammolardan biri, bu turdagi jinoyatlarni tergov qilish davomida tergovning to'liqligiga, ya'ni jinoiy guruhlarini zanjir bo'yicha aniqlashga etarli e'tibor berilmayapti, ayniqsa jabrlanuvchilarni chet elda qabul qilib, ekspluatatsiya qilgan

shaxslarni aniqlash choralari ko'rilmayapti va faqatgina yollovchilar jinoiy javobgarlikka tortilmoqda. Bu esa o'z navbatida jinoyatchilarning ma'lum bir qismini jazosiz qolishlariga hamda bu turdagi jinoyatlar sonini oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari, odam savdosi jinoyatlarini aniqlash va tergov qilish muammosi shundaki, harakatlarning bir qismi-yollash amalga oshgan hududda, bir qismi-tranzit davlati hududida, bir qismi-chet davlat hududida sodir etiladi. Jinoyat bir davlat hududida amalga oshirilishi bilan (yollash) boshlanadi, ushbu yollashning jinoiy maqsadini (ekspluatatsiyani) isbotlovchi dalillarni faqat boshqa davlatning, ya'ni boshqa davlat jinoiy qonunchiligining yurisdiksiyasida bo'lgan hududdan yig'ish mumkin. Sodir etilgan jinoyatni to'g'ri malakalashni ta'minlash – huquqni muhofaza qiluvchi organlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Jinoyatni malakalashda qonuniylik, fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolati, odil sudlovni amalga oshirish prinsiplari zaruriy shart bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, tergovchi odam savdosi jinoyatiga qarshi kurashishda davlat organlarining majburiyatlarini bilishi shart. Yollovchi ish izlab ketayotgan fuqarolar bilan bir mahallada yashaydi yoki qarindoshi bo'ladi hamda aksariyat holatlarda fuqarolar yaxshi daromad (asosan Rossiya va Qozog'istonda) ko'rib qaytmoqdalar. Ya'ni, yollanib olib ketilganlarning hammasi ham chet elda majburiy mehnatga jalb (ekspluatatsiya) qilinmaydilar (Shahvoniy maqsadda Dubay yoki boshqa mamlakatlarga olib ketish bundan mustasno). Yollovchi tomonidan shaxs ishga yollanganda (og'zaki yoki yozma kelishuv tuzilganda) jinoyat tugallangan deb hisoblanmoqda, lekin oqibat kelib chiqqani yo'q va ba'zi holatlarda faqatgina yollash harakatining (jinoiy maqsadsiz) o'zi sodir etilsada, yollovchiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilmoqda. Fuqarolar oylik maoshini olmasliklari jinoyat deb hisoblanmasligi lozim. Iqtisodiy inqiroz tufayli chet davlatdagi korxonalar va tashkilotlar o'z vaqtida maoshni to'lash qobiliyatini yo'qotmoqda. Tabiiyki, u erda yollanib ishlagan fuqarolarni maoshlarini o'z vaqtida ololmasdan qaytibkelib, birga olib ketgan yollovchiga nisbatan ariza bermoqdalar. Mazkur holatlarda ham odam savdosi jinoyati sodir bo'lgan deb bo'lmaydi. Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiya va ushbu

Konvenstiyani to'ldiruvchi «Odam savdosi, ayniqsa ayollar va bolalarni sotishning oldini olish, unga chek qo'yish va buning uchun jazolash to'g'risida»gi qo'shimcha Protokolni O'zbekiston ratifikastiya qilganligi sababli, tergov harakatlarini o'tkazishda va shaxsning harakatlarini malakalashda ana shu hujjatlar mazmuniga e'tibor berish zarur. Chunki bizning Qonun ushbu hujjatlarga asoslangan va atamalar ham aynan ushbu hujjatlardagi atamalar bilan bir xil ma'noga ega. Chet davlatdagi ish beruvchi tashkilot yoki korxonaning kafolatnomasini talab qilish va chet davlatlardan chiqarib yuborilgan ayollarni familiyalarini o'zgartirilishini chuqur o'rganish hamda qayta chet elga chiqish vizasini rasmiylashtirishda ularni turar joyi, mahalla, qishloq fuqarolar yig'ini va ichki ishlar idoralari profilaktika inspektorlari tomonidan beriladigan tavsiyanomalarni talab qilish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. Chet davlatga sayyohlik tashkiloti, firmalari orqali chiqib ketayotgan shaxslarni, o'sha xorijiy davlatlardaqolib ketishligini oldini olish maqsadida ularni chet davlatlarga yuborgan tashkilot, firmadan fuqarolarni yashash manziliga qaytib kelganligi to'g'risida ma'lumotini olish maqsadga muvofiq. Mazkur toifadagi jinoyatlardan jabr ko'rgan fuqarolarni sog'lom hayot tarziga qaytarish uchun har tomonlama ko'mak berishlikni tashkil etish, bu borada ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar ishlab chiqish hamda «Odam savdosi» jinoyatini sodir etgan har bir ayblanuvchining shaxsini televidenie va radio orqali keng ommaga etkazish, bu turdagi jinoyatlarni oldini olish borasida keng qamrovli profilaktik ishlarini amalga oshirish zarur bo'ladi. Ushbu dolzarb mavzu bo'yicha Akademiyada quyidagi vazifalarni bajarilishi lozim deb o'ylaymiz: 1. Odam savdosi jinoyatlariga qarshi kurash, ularni oldini olish bo'yicha tashviqot-targ'ibot ishlarini kengaytirish va jadallashtirish; 2. Har bir xodim, tinglovchi, kursant bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurash har birimizning muqaddas vazifamiz ekanligini tushunishiga erishish; q. Odam savdosi jinoyatlarini aniqlash, ularni sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, tezkor- qidiruv, profilaktika va tergov faoliyati samaradorligini oshirishgayo'naltirilgan ilmiy va metodik ishlarni amalga oshirish.

2-bob: Odam savdosiga qarshi kurashning huquqiy asoslari

2.1. Odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari

«Inson huquqlari sohasidagi xalqaro va davlat ichki huquqining birlashib ketishi, bir-biriga kirib borishi va bir-biriga ta'siri kuchayishi bugungi kunda har qachongiga qaraganda ham chuqurroq sodir bo'lmoqda».

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda butun dunyoda insonlarni kamsitish, ularning huquqlarini tan olmaslik, odam savdosi kabi jinoyatlar ko'payib borayotganligi barchamizni tashvishga solmoqda.

Huquqshunos M.Rajabova o'tgan asrdan yigirma birinchi asrga transmilliy tashkiliy jinoyatchilikning uchta eng xavfli turi "meros" bo'lib o'tdi, ular terrorizm va din niqobi ostidagi zo'ravonlik, ya'ni, ekstremistik, fundamentalistik, separatistik xurujlar tursa, keyingisi narkobiznes va eng so'nggisi odam savdosi, trafik bilan shug'ullanuvchi yirik-yirik jinoyatchi tashkilotlardir, deb ta'kidlaydi.

Odam savdosi qullikning zamonaviy usuli, qul savdosining yangi ko'rinishidir. Jinoyatchilar, birinchi navbatda, ayollar va bolalarni majburiy mehnat va jinsiy qullik qopqoniga aldab tushirmoqdalar. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar kuch ishlatish, firibgarlik, majburlash va boshqa jinoiy vositalardan foydalangan holda, himoyaga muhtoj, zaif va tushkinlikka tushgan insonlarni dunyoning boshqa davlatlariga olib ketadilar.

1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklarastiyasida^{9[11q]}, shuningdek, boshqa bir qator xalqaro huquqiy hujjatlarda hamda mamlakatimiz milliy qonunchilik normalarida hamma insonlar o'z qadr-qimmatini va huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar, deb mustahkamlangan.

Tabiiyki, odam savdosi yuqorida aytib o'tilgan xalqaro va milliy huquqiy normalar (insonning erkinligi, tengligi, shaxsiy daxlsizligi)ga zarar etkazadi. Odam savdosi quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

^{9[113]} Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар/Т., Адолат, 2002, 48-б

- **majburiy mehnat** (mamlakatimiz fuqarolari majburiy mehnat yoki xizmat ko'rsatish uchun asosan Qozog'iston va Rossiyaga olib chiqib ketilmoqda;
- **qullik** (1956 yilgi Qulchilikni, qullarni sotish va qulchilikka o'xshash odatlar va institutlarni tugatish to'g'risidagi qo'shimcha konvenstiyada bayon etilishicha, qul savdosi boshqa bir shaxsni qulga aylantirish, unga suiqasd uyushtirish va bunday xatti-harakatlarni sodir etishda sherik bo'lish, erksiz holdagi shaxslarni mayib-majruh etish va ularga tamg'a bosishni o'z ichiga oladi;
- **fohishabozlik** (O'zbekiston fuqarolari fohishalik uchun asosan BAA, Tailand, Turkiya, Hindiston, Isroil, Malayziya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Kosta-Rika olib chiqib ketilmoqda;
- **majburiy donorlik;**
- **harbiy to'qnashuvlarda foydalanish** va h.k.

Aytish mumkinki, odam savdosiga qarshi kurashish masalasi bugun paydo bo'lgani yo'q. Agar tarixga nazar solsak, unga qarshi kurash haqidagi dastlabki xalqaro huquqiy hujjat 1899 yilda London shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferenstiyada qabul qilingan «**Ayollarlardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun ularni yollashga qarshi kurash to'g'risida**»gi rezolyustiya hisoblanadi. Shundan so'ng 1904, 1910 yillarda mazkur masala yuzasidan xalqaro bitimlar, 1921 va 1933 yillarda odam savdosi muammolari bo'yicha xalqaro konvenstiyalar qabul qilingan^{10[117]}.

Shuningdek, odam savdosiga qarshi kurash borasida qabul qilingan quyidagi xalqaro hujjatlarnisanab o'tish mumkin:

- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1950 yil 21 martida qabul qilingan «**Odam savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risida**»gi Konvenstiya (O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatga 2003 yil 12 dekabrda qo'shilgan);
- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2000 yil 15 noyabrdagi 55/25- sonli rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan «**Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka**

^{10[117]} Ражабова М. Одам савдосига қарши кураш. «Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Ахборотномаси», № 2, 2008, 3-б.

qarshi kurash to'g'risida»gi Konvenstiyaga qo'shimcha odam savdosi, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosi haqida ogohlantirish va chek qo'yish hamda bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risidagi bayonnoma (2001 yil 28 iyunda O'zbekiston ratifikatsiya qilgan).

Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha milliy qonunchiligimizdagi quyidagi huquqiy hujjatlarni ko'rsatish mumkin :

- O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining moddalari (135-modda **«Odamlardan foydalanish uchun ularni yollash»**, 137-modda **«Odam o'g'irlash»**, 138-modda **«Zo'rlik ishlatib g'ayriqonuniy ravishda ozodlikdan mahrum qilish»**);

- 2008 yil 17 aprelda qabul qilingan **«Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida»**gi qonun;

Mazkur normativ-huquqiy hujjatda mustahkamlab qo'yilganidek, odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari, jumladan, IIV, Milliy xavfsizlik xizmati, Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari, Sog'liqni saqlash vazirligining shu yo'nalishdagi faoliyatlari respublika va hududlardagi Idoralararo kommissiyalar tomonidan muvofiqlashtirilib boriladi.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 8 iyuldagi **«Odam savdosiga qarshi kurashish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»**gi PQ-911-sonli Qarori. Mazkur qaror bilan 2008-2010 yillarda odam savdosiga qarshi kurashning samaradorligini oshirish bo'yicha ishlarning Milliy rejasi, Odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha idoralararo Respublika kommissiyasi tarkibi tasdiqlandi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida xorijiy davlatlar bilan uyushgan jinoyatchilik (shu jumladan, odam savdosi)ning xavfli ko'rinishlariga qarshi kurash haqida 29 ta shartnoma va kelishuvlar imzolangan.

Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar, o'z xususiyatiga ko'ra, latent xarakterga ega. Chunki odam savdosi qurbonlari ularga nisbatan jismoniy yoki ruhiy tazyiq o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishi yoki o'zining

noqonuniy xorijga chiqqanligi fosh bo'lishidan cho'chib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmaydilar. Bunday holat odam savdosi bilan shug'ullangan shaxslarning javobgarlikdan qutilib qolishiga hamda jinoiy faoliyatini davom ettirishiga olib keladi.

Xalqaro ekspertlarning ma'lumotlariga qaraganda, har yili dunyo miqyosida 2 million 700 ming kishi odam savdosi qurboniga aylanadi. Ushbu jinoyatchilikdan tushadigan noqonuniy daromad 7 milliard AQSh dollarini tashkil qilmoqda. Dunyo miqyosida har yili 600 mingdan 800 ming nafargacha ayollar va bolalar aldov yo'li bilan chet ellarga olib ketilib sotiladi.

Ayniqsa, odam savdosi jinoyatidan jabrlanganlarning 80 foizini ayollar yoki yosh bolalar tashkil etayotgani tashvishli holdir.

Bugungi kunda odamlardan foydalanish uchun ularni yollash va odam savdosi sohasidagi jinoyatlarning o'sishi, ularni uyushgan guruhlar, jinoiy uyushmalar tomonidan o'zaro uyushgan holda sodir qilish hollari ko'paymoqda. Jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rilgan ishlar o'rganib chiqilganda, odamlardan foydalanish uchun ularni yollash jinoyati ishtirokchilikning quyidagi shakllari orqali sodir etilganligini ko'rishimiz mumkin: murakkab ishtirokchilik - 28%; uyushgan guruh tomonidan - 42%; jinoiy uyushma tomonidan -10%ni tashkil etar ekan.^{11[122]}

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, bugungi kunda odam savdosiga qarshi kurashish va bunday noxush voqealarni oldini olish global ahamiyat kasb etmoqda. Barcha davlatlarning o'zaro hamkorligiga ehtiyoj tug'dirib, bu borada davlatlararo va xalqaro tashkilotlar doirasida o'zaro mustahkam hamkorlik o'rnatish hamda kuchlarni birlashtirish lozimligini taqazo etmoqda. Bu borada odam savdosiga qarshi kurashning xalqaro va milliy qonunchilik normalarida qonuniy tartibga solinishi shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishning samarali vositasi hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlar hozirda Er yuzida har yili 4 mln.ga yaqin kishi odam savdosining qurboni bo'layotganligidan guvohlik berayotganligi

^{11[122]} Қаранг; Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги Ахборот Маркази маълумоти. 2005й.

xavotirli holdir. Boz ustiga ushbu jirkanch va qabih qilmishlar orqasidan ayrim manfur kimsalar yiliga 7 mlrd. AQSh dollarigacha noqonuniy daromadga ega bo'layotganligi muammoning yanada ayanchli tus olishiga sabab bo'ladi. Raqamlarga nigoh soladigan bo'lsak, 1997 yilda MDH, Markaziy va Sharqiy Evropa davlatlaridan G'arbiy Evropa va Shimoliy Amerika mamlakatlariga 750.000 ayol va voyaga etmagan qizlar olib ketilgan. Xalqaro migrastiya tashkiloti 1998 yili G'arbiy Evropa mamlakatlariga kontrabanda yo'li bilan 500.000 ayol olib kirilib, ularning aksariyati noqonuniy ekspluatasiya qurboniga aylanishgani haqida xabar bermoqda. Umuman olganda, XX asrning 70-yillari boshidan buyon qariyb q0 mln.ga yaqin kishi odam savdosining qurboni bo'lgan.

Odam savdosi jinoyatining o'sishi xalqaro miqyosda tashkil etilgan jinoyatchilikning o'sishi bilan bevosita chambarchas bog'liq. Bu jinoyat bilan shug'ullanuvchilar bir necha yil ichida tarqoq holdagi kichik jinoiy guruhlardan xalqaro miqyosda odam savdosi bilan shug'ullanuvchi yirik jinoiy uyushmalarga aylanishga ulgurdi. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar chet elga ishchi kuchi yuboruvchi tashkilotlar niqobi ostida faoliyat yuritib, chet elga talabalik, sayyohlik va boshqa xil vizalar bilan chiqmoqchi bo'lgan shaxslarni odam savdosi domiga tortib ketmoqdalar. Inchunun, Germaniyaga bormoqchi bo'lgan ayollarga nikoh idoralari er topib berish, ish topib beruvchi firmalar esa, turli xil ish topib berishni taklif qilishib, aslida ularni nemis fohishaxonalariga sotib yuborishgan hollar ma'lum.

Odam savdosi doimo aldash, zo'rlik ishlatish yoki berilgan qarz asosida majburiy mehnatga jalb etish harakatlarini o'z ichiga oladi. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchining maqsadi aldash, zo'rlik ishlatish yoki berilgan qarz asosida majburiy mehnatga jalb etish orqali ishlar yoki xizmatlar bajarilishiga erishish, ya'ni ularni olishdan iborat. Odam savdosi mamlakat ichkarisida ham, shuningdek, qonuniy yo'l bilan davlat chegarasidan o'tgan shaxslarga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin. Shunday qilib, odam savdosi jinoyati birinchi navbatda shaxsga qarshi, undan keyin esa davlat suverenitetiga qarshi qaratilgan jinoyat hisoblanadi.

Afsuski, hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda odam savdosiga hukumat va jamoatchilik tomonidan etarli darajada e'tibor qaratilmayapti, odam savdosi qurboni bo'lgan insonlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha mexanizm ishlab chiqilmagan. Taassufki, qator davlatlarda odam savdosiga qarshi qonunchilik etarlicha ishlab chiqilmagan. Mavjud qonunlar esa aniq va mohiyatan maqbul bo'lmay, ko'pgina hollarda jinoyatchilarni emas, bil'aks jabrlanuvchilarni qoralashga yo'naltirilgan. Hatto, ayrim mamlakatlarda odam savdosi bilan shug'ullanish umuman jinoyat ham hisoblanmaydi. Boz ustiga, odam savdosiga qarshi qonunchilik shakllangan mamlakatlarda ham qonun hujjatlari jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilishga emas, balki noqonuniy migrastiyaga barham berishga qaratilgan.

Undan tashqari, ko'p hollarda ushbu jinoyatdan jabr ko'rgan ayollarning ko'pchiligi rasmiy davlat idoralariga, huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilishmaydi. Bu bir necha omillar bilan izohlanadi: huquqni muhofaza qilish idoralari ayrim xodimlarining ularni behurmat qilishlari, ularga yordam berish o'rniga ularning huquqlarini poymol qilishlari hamda jabrlanuvchilarning omma oldida sharmanda bo'lishlikdan qo'rqishi shular jumlasidandir.

Shu nuqtai nazardan odam savdosiga qarshi xalqaro huquq normalari rivojlanishiga to'xtalib o'tsak. Odamlardan foydalanish uchun ularni yollashga qarshi xalqaro miqyosda kurashish bo'yicha dastlabki qadamlar XX asr boshlarida tashlangan bo'lib, u xususan quyidagi hujjatlarda o'z aksini topdi: Shahvoniy maqsadlarda foydalanish uchun amalga oshiriladigan ayollar savdosiga qarshi kurashish bo'yicha 1899 yil 14 apreldagi London konferenstiyasining ko'p tomonlama bitimlarni tuzish va tegishli milliy qo'mitalarni tashkil etish to'g'risida davlatlarga qilgan murojatnomasi, Oq tanli cho'rilar savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi 1904 yil 18 maydagi Xalqaro shartnoma, Oq tanli cho'rilar savdosiga qarshi kurash to'g'risidagi 1910 yil 4 maydagi Xalqaro Konvenstiya, Odamlar savdosi va fohishabozlikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to'g'risidagi 1949 yil 21 martdagi Konvenstiya, Qullik to'g'risida 1926 yil 25 sentyabrdagi Konvenstiyalar shular jumlasidandir.

Alxusus, “Qullik to’g’risida”gi Konvenstiyada ilk marotaba davlatlarning odamlardan foydalanish uchun ularni yollash, ya’ni odam savdosi jinoyatining oldini olish va bartaraf etish masalasi qayd etilib, unda jumladan, biron-bir shaxsni qo’lga kiritish yoki qullikka solish maqsadida ekspluatatsiya qilish yo’li bilan uni egallash, sotish yoki ayirboshlash maqsadida qulni qo’lga kiritish, qo’lga kiritilgan shaxsni sotish yoki ayirboshlash shuningdek, qullar savdosi yoki ularni tashish bo’yicha harakatlarni amalga oshirish man etildi^{12[2q]}. Konvenstiyaga muvofiq, uni imzolagan tomonlar qul savdosini tugatish va uning oldini olish, qullikning barcha shakllarini to’liq tugatish majburiyatlarini o’z zimmalariga oldilar.

Odamlardan foydalanish maqsadlariga odam savdosini taqiqlashga qaratilgan xalqaro-huquqiy siyosat izchil rivojlanib, 1930 yil 28 iyunda Zo’raki yoki majburiy mehnat to’g’risidagi 29-Konvenstiya qabul qilinishiga olib keldi. “Zo’raki yoki majburiy mehnat to’g’risida”gi Konvenstiya qoidalari odamlardan foydalanish tushunchasini qonunchilik darajasida “majburiy mehnat” nimaligi va unga qarshi kurash holatlarini bayon etib, belgilab berdi. Konvenstiyani qabul qilinishi xalqaro maydonda ushbu tushunchalarga bir qadar oydinlik kiritilishiga sabab bo’ldi.

1939-1945 yillardagi ikkinchi jahon urushi tugashi bilan odam savdosi xalqaro-huquqiy darajada man etilishida yangi davr boshlandi hamda har bir inson yashashi, erkin bo’lish va shaxsiy daxlsiz huquqlariga ega ekanligi, hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emasligi, qullik va qul savdosining barcha ko’rinishlari taqiqlanishi qat’iy mustahkamlandi^{13[25]}.

1949 yilda BMT tomonidan “Odamlar savdosi va fohishalikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurash to’g’risida Konvenstiyani”^{14[26]} qabul qilingan. Konvenstiya Muqaddimasida ta’kidlanganidek “fohishalik va uning bilan birga sodir bo’luvchi fohishalik maqsadlarini ta’qib qiluvchi odamlar savdosi

^{12[23]} Куллик тўғрисидаги Конвенция. / Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. –Тўплам: Тошкент. Адолат, 2004. - 216 б.

^{13[25]} “Всеобщая декларация прав человека” Сборник нормативно-правовых документов по вопросам миграции и противодействия торговле людьми в области прав человека. - Ташкент, 2007.- 30 с.

^{14[26]} 1995 йилда 70 та давлат томонидан ратификация қилинган (Қаранг: Human Rights International Instruments. NY and Geneva, 1995. P. 11.)

kabi illat inson shaxsining qadr-qimmatini va qadriyatiga nomunosib bo'lib, inson, oila va jamiyat farovonligiga" xavf tug'diradi. Konventsiyaga ko'ra tomonlar odam savdosini to'xtatish uchun muhojirlarni, ayniqsa, ayollar va bolalarni ular keltiriladigan va jo'natiladigan joylarda muhofaza qilish uchun zarur qarorlarni qabul qilish; yollanish tahdidi bilan bog'liq xavfdan aholini vaqtida xabardor qilish uchun tegishli chora-tadbirlarni ko'rish; odamlardan foydalanish maqsadida ularni yollashning, umuman xalqaro odam savdosining oldini olish uchun temir yo'l bekatlari, aeroportlar, portlar va boshqa jamoat joylarida, kuzatuvni ta'minlashga qaratilgan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish; mavjud ma'lumotlarga ko'ra shunday jinoyatlarning asosiy aybdorlari, ishtirokchilari yoki jabrlanuvchilari mamlakatga kelganligi to'g'risida tegishli hokimiyat idoralari xabardor qilish uchun barcha zarur choralarni ko'rish majburiyatlarini qabul qildilar^{15[27]}.

Xususan, odam savdosi jinoyati jabrlanuvchilarini o'z vatanlariga qaytarish xarajatlarini o'zlari qoplay olmasalar, ularning chegaragacha, portgacha yoki jo'nash aeroportigacha etib olish xarajatlari bu shaxslar yashab turgan davlat tomonidan qoplanadi, qolgan xarajatlarni esa, ular mansub bo'lgan davlat o'z zimmasiga olishiga kelishildi. Nihoyat, Konventsiya tomonlari ish izlayotgan shaxslarni, ayniqsa bolalar va ayollarni ulardan fohishabozlik maqsadida foydalanish xavfidan himoya qilish maqsadida mehnatga yollash idoralari faoliyati ustidan kuzatuv olib borish yuzasidan zarur choralarni ko'rishga ahdlashganlar.

Yuqoridagi mulohazalarni davom ettirib, qayd etish o'rinliki, odam savdosi jinoyatining oldini olish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jinoyatchilikka qarshi kurashning bosh yo'nalishi hisoblanadi.

^{15[27]} “Одамлар савдоси ва фoҳишабозликнинг учинчи шахслар томонидан ишлатилишига қарши кураш тўғрисида Конвенция”. / Инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар. Тўплам. – Тошкент: Адолат, 2004. - 185 б.

2.2. Odam savdosiga qarshi kurash va uning oldini olish ilojlari

Odam savdosiga qarshi kurashning ustuvor oldini olish chora-tadbirlari sirasiga quyidagilar kiradi:

1. Huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan xorijiy davlatlarda ishga joylashtirish bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 200q yil 12 noyabrdagi 505-sonli "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish choralari haqida"gi qaroriga muvofiq mehnat migrastiyasi jarayonlarini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini ish bilan ta'minlash masalalarini hal qilish O'zbekiston Respublikasi Mehnat va ijtimoiy himoya vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migrastiyasi masalalari bo'yicha agentlik keyingi joylarda – Agentlik) zimmasiga yuklatilgan. Agentlik O'zbekiston hukumati tomonidan zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida:

- mehnat migrastiyasi sohasida xalqaro hamkorlik bo'yicha loyihalar ishlab chiqish va ularni amalga tatbiq etishda ishtirok qiladi;

- chet davlatlarning tegishli vakolatli organlari bilan O'zbekiston fuqarolarining chet elda ishlashi uchun kvotalar ajratish va ishlashlariga ruxsat olishda hamkorlikni amalga oshiradi,^{16[11]}

- chet ellik ishchi kuchini yollayotgan xorijiy yuridik shaxslar bilan hamkorliklikni kuchaytiradi va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Xorijga mehnat va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida ketayotgan shaxslarni hisobga olishni takomillashtirish, mamlakat hududidan tashqarida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining himoyasini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 15 maydagi 97-sonli "Mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga ketayotgan

^{16[11]} Мас, Ўзбекистон ва Корея Республикалари ўртасидаги икки томонлама шартномага мувофиқ 1995-2007 йилларда Агентлик орқали 154000 нафар ҳамюртларимиз Кореяда ишга жойлаштирилган. Қаранг, Дониёров С. Современное рабство / Народное слово. –2009. №29. –С.2.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari hisobini yuritishni takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi bojxona qo'mitasi tomonidan har chorakda xorijga ketayotgan fuqarolar soni va maqsadiga oid hisoblar yuritiladigan bo'ldi. Shu munosabat bilan 2007 yil 1 iyuldan Bojxona deklarasiyasining yangi shakli amal qila boshladi;

- O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi hamkorligida:

- a) aholining uy xo'jaligida bandligi masalalarini o'rganish bo'yicha dasturiga har chorakda mehnat emigratsiyasiga oid ma'lumotlar kiritiladigan bo'ldi;

- b) O'zbekiston fuqarolarining mehnat emigratsiyasi masalalari bo'yicha har yili maxsus sosiologik tadqiqotlar o'tkazilmoqda;

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xorijdagi O'zbekiston Respublikasi konsullik muassasalari orqali chet elda mehnat yoki tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining monitoringi o'tkaziladi.

2. Aholining huquqiy savodxonligi va axborot bilan ta'minlanishini oshirish. Xususan, xorijga chiqish hujjatlarini tayyorlashda O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi va Milliy xavfsizlik xizmati organlari mansabdor shaxslari xorijga chiquvchilar o'rtasida ushbu qonunbuzarliklarni oldini olish uchun tushuntirish ishlarini olib boradilar. Bunday ishlar doirasida aholi odam savdosi va tashrif buyurgan davlatlarida fohishabozlik va boshqa g'ayriqonuniy harakatlar bilan shug'ullanmaslik haqida ogohlantiriladi.

Bundan tashqari, aholining mavzuga oid axborotlar bilan ta'minlanishida, qullikning zamonaviy ko'rinishiga jalb qilinishining oldini olishda aholi o'rtasida keng ko'lamli ishlarni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat institutlari muhim o'rin tutadi. Ushbu faoliyat doirasida seminarlar o'tkazilib, unda aholining ish bilan bandligi holati va xorijda qonuniy ishga joylashtirish haqida masalalar

ko'tariladi, shuningdek, odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar tomonidan o'zlarini potentsial qurbonlarini qidirishda ko'p ishlatiladigan, har bir fuqaro o'zining xavfsizligi nuqtai nazaridan unga duch kelganida sergak tortishi lozim bo'lgan usullar muhokama qilinadi. Chunki odam savdosi qurboni bo'lgan ko'pchilik shaxslar, hatto ularni o'z davlati chegarasidan tashqarida qanday xavf-xatar kutayotganligini bilmaydilar ham.

Aholining huquqiy savodxonligi va axborot bilan ta'minlanishi darajasini oshirishda ommaviy axborot vositalari ham muhim o'rin tutadi. Xususan, turli OAVlarida huquqni muhofaza qiluvchi va sog'liqni saqlash organlarining matbuot xizmatlari bilan hamkorlikda g'ayriqonuniy migrastiyaning xavfli oqibatlari, OITS va teri-tanosil kasaliklarini yuqtirish xavfi, jinsiy harakatlar qilish bilan bog'liq ishlar va boshqalarga oid ma'lumotlar nashr va namoyish qilinadi.

JKning 135-moddasi bo'yicha qo'zg'atilgan jinoyat ishlarini tergov qilishning natijalari yuzasidan faol profilaktika ishlari respublikaning tergov organlari tomonidan amalga oshiriladi: uni sodir qilishga ko'mak bergan jinoyatni sodir etish shart-sharoiti, sababi va holati, oldini olish maqsadida jabrlanuvchi va ayblanuvchining ish joyi va yashash joyidagi aholi xabardor qilinadi.

3. G'ayriqonuniy migraciyaga qarshi kurash bilan shug'ullanuvchi yuqori professional tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar yordamida migrastion nazoratni kuchaytirish, shuningdek, qonunga zid migraciya haqidagi ma'lumotlar almashinuvini amalga oshirish maqsadida ushbu organlarning xorijiy davlatlarning tegishli organlari bilan hamkorligini kuchaytirish lozim bo'ladi.

4. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlariga O'zbekiston Respublikasi chegaralarini tegishli chegara va bojxona nazoratisiz kesib o'tishga imkon beruvchi barcha xufyona yo'llarni bartaraf etish.

5. Yoshlarning axloqiy tarbiyasi darajasini oshirish (odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar oldida zaif, ya'ni ishonuvchan bo'lgan fuqarolarning ayni shu toifasi tavakkal qiluvchilarning birinchi guruhiga kiradi), mustaqil fikrlovchi va hayotga komil ishonch bilan qarovchi yoshlarni tarbiyalash zarur.

Shunga ko'ra:

- fohishabozlik, pornografiya, giyohvandlik, alkogolizm, tamaki iste'moli va boshqa shu kabi illatlarga qarshi kurash bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirish (masalan, rasmlar ko'rgazmasi yoki teatrlashtirilgan ko'rinishlar);

- sport to'garaklari ishlarini tashkillashtirish, o'quv yurtlarida sport musobaqalarini o'tkazish va boshqalar orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish imkoniyati yaratiladi.

Bugungi kunda ayni yo'nalishdagi keng ko'lamli ishlarni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati, "Oila" ilmiy-amaliy markazi va ommaviy axborot vositalari amalga oshirmoqdalar.

6. Ayniqsa, kichik shaharchalar va qishloq joylarida yoshlarni ish bilan ta'minlashga alohida e'tibor berilishi lozim. Shunga ko'ra, "Yoshlar yili" davlat dasturi asosida davlat organlari tomonidan:

- ijro hokimiyati rahbarlarining harbiy xizmatni o'taganlarni joylarda ish bilan ta'minlash va oliy ta'lim muassasalarida o'qishini ta'minlashga ko'maklashish mas'uliyatini oshirish choralari ishlab chiqildi;

- korxonalar va tashkilotlarning talablariga ko'ra, yoshlarning malaka va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha o'quv kurslari va qayta tayyorlash kurslari tashkil qilindi;

- kichik korxonalar va mikro firmalarni rivojlantirish, mavjud korxonalarni rekonstruktsiya qilish va moliyaviy axvolini yaxshilash, yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini tashkil qilish hamda ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish orqali 600 ming (ulardan 220 tasi kichik shaharchalar va qishloq joylarida) yangi ish joylari yaratildi.

Aholi bandligi darajasini ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan alohida chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi va u hozirda amalga oshirilmoqda.^{17[12]}

^{17[12]} Рашитжон Кадыров. // Народное слово. 2009. -№48. (4680).

7. Oiladagi kelishmovchiliklar va janjallar, ko'p hollarda ayollarning nafaqat uydan ketib qolishi, balki, davlatdan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekistonda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va "Oila" ilmiy-amaliy markazi hamkorligida oilada ayolning o'rni, har bir fuqaroning huquq va erkinligi hurmat qilinishi, insonni zo'rlash holatlariga yo'l qo'ymaslik lozimligi masalalariga bag'ishlab seminarlar, munozara klublari, davra suhbatlari tashkil etilmoqda. Zero, ko'plab hollarda oiladagi kelishmovchiliklarning oldini olish muammosi jamiyatning munosabati bilan chambarchas bog'liqdir.

8. O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining chet davlatlar hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa organlari bilan odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarni ochish, tergov qilish usullari va odam savdosi bilan shug'ullanayotgan jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risida axborotlar almashish mexanizmini takomillashtirishi.

9. O'zbekiston Respublikasi davlat organlarining odam savdosiga qarshi kurash sohasidagi ichki hamkorligi mexanizmini takomillashtirish.

10. Odam savdosiga qarshi kurashga oid milliy qonunlar takomillashtirilishi lozim. Xususan, hozirda ushbu tadbirlar doirasida O'zbekiston Respublikasining «Odam savdosiga qarshi kurash to'g'risida»gi qonuniga sharhlar va ushbu sohaga oid normativ-huquqiy aktlar to'plami tayyorlanmoqda.

11. Odam savdosi muammosiga bag'ishlangan o'quv qo'llanmalari, badiiy va hujjatli filmlar tayyorlash, teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlarini tashkil qilish kerak. Bu choralar nafaqat insonlarni xalqaro muammo to'g'risida axborotga ega bo'lishi, balki ularning bu muammolarga qarshi kurashishda yaqinlashuviga ham yordam beradi.

12. Oliy o'quv yurtlari, kollejlari, listeylar va maktablarda doimiy ravishda odam savdosiga qarshi kurashga bag'ishlangan fakultativ darslar o'tkazishni yo'lga qo'yish zarur.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan ishga qabul qilishning minimal yoshi to'g'risidagi va bolalar mehnatidan foydalanishning yomon shakllariga darhol barham berish to'g'risidagi Konventsiyalar ratifikatsiya qilinganligi munosabati

bilan O'zbekiston Respublikasi hukumati Milliy harakat rejasini tasdiqladi. Ushbu hujjatda O'zbekistonda bolalar qulligi yoki uning qullikka o'xshash barcha shakllariga barham berishga qaratilgan tadbirlar ro'yxati kiritilgan. Bunday tadbirlar qatoriga:

- bolalarni mehnatning yomon shakllariga jalb qilgan ota-onalar, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va jismoniy shaxslar javobgarlik belgilash va uni kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish yo'li bilan qonunlarni inventarizatsiya qilish;

- mehnat qonunchiligida belgilangan ishga qabul qilishning minimal yoshi va 18 yoshga to'lmaganlar uchun mehnat sharoitlarining yaratilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

- surunkali dars qoldirgan har bir o'quvchini muhokama qilish orqali, barcha ta'lim muassasasida o'quvchilar davomatining nazoratini ta'minlash;

- ta'lim muassasasi rahbarining o'quvchilar kontingenti va ularning davomati uchun shaxsan javobgar ekanligini belgilash;

- ta'lim muassasasiga bormayotgan bolalarning ota-onalariga ta'sir ko'rsatish va bolalarni o'qish joylariga qaytarish maqsadida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishini kuchaytirish;

- voyaga etmaganlar ishi bilan shug'ulanuvchi komissiyalar, Xalq ta'limi vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, «Mahalla» jamg'armasi va «Kamolot» yoshlar jamoatchilik tashkiloti hamkorligida notinch oilalardagi bolalar ahvolidagi monitoringini amalga oshirish;

2010 yildan boshlab kasb-hunar koledjlari, akademik listeylar va kollejlarda «Mehnat huquqi» va Biznes bilan tanishish» fanlari bo'yicha o'quv rejalari va o'quv dasturlarini kiritish va h.k.

Albatta, mas'uliyatsiz mansabdor shaxslarning yordamisiz va migratsiya qonunchiligini buzmasdan odamlarning, o'zlarining roziligisiz, chet elga olib chiqilishi mumkin emas. O'zbekistonda odam savdosiga qarshi kurashda mansabdor shaxslar doirasidagi korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida quyidagi jinoyat-huquqiy va kriminologik chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- pora olganlik, mansab yoki vakolatlarini suiiste'mol qilganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash;

- mansabdor shaxslarning o'z vakolati doirasida qo'p masalalarni hal qilish holatlarini kamaytirish;

- mansabdor shaxslar vakolatlari aniq chegaralarini belgilash;

- mansabdor shaxs va fuqarolarning o'zaro munosabatlari tartibini belgilab qo'yish;

- mansabdor shaxslarning faoliyati nazoratini kuchaytirish va boshqalar.

Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan choralar odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash darajasining ortishiga ta'sir ko'rsatayotganligini ta'kidlash joizdir. Agar 2007 yilda odamlarni ekspluatastiya qilish maqsadida yollanganlik bo'yicha q82 fakt aniqlangan bo'lsa, 2008 yilda ushbu ko'rsatkich 2,5 marta o'sgan.^{18[1q]}

Odam savdosi jinoyatlarining latentlik xususiyati yuqori ekanligi sababli, jabrlanuvchilar kimga yordam so'rab murojaat qilishi mumkinligi to'g'risida ma'lumotga ega emasligi, qarindosh va tanishlari orasida ularni kamsituvchi holatlarning tarqalib ketishidan xavfsirashiga ham e'tibor berish kerak. Shu munosabat bilan O'zbekistonda odam savdosi bo'yicha aniqlanmagan faktlarni kamaytirish uchun jabrlanuvchilarga ko'rsatiladigan ijtimoiy, huquqiy va boshqa yordamlarning to'liq sir tutilishini kafolatlovchi odam savdosi qurbonlariga yordam ko'rsatish va himoya qilish rehabilitastiya markazi faoliyatini targ'ib qilish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Yuqorida aytib o'tilganidek, odam savdosi shunday yo'lga qo'yilgan tizimki, u muayyan davlat, uning fuqarolari, xalqaro hamjamiyat tomonidan belgilangan tizimni izdan chiqarish qudratiga ega. Biroq bugun bemalol ayta olamizki, O'zbekiston Respublikasi mazkur transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashga tayyor va bunga layoqatli ekanligini amalda ko'rsatmogda.

Mamlakatimizda eng avvalo, bunday hodisalarni kamayishi uchun yuqorida aytganimizdek ko'plab yangi ish joylarini ochish yo'lga qo'yilgan. Buning uchun

^{18[13]} Рашитжон Кадыров. // Народное слово. 2009. -№48. (4680).

mamlakatda tadbirkorlik sub'ektlarini himoya qilish, ularni faoliyatlarini tekshirishni mumkin qadar kamaytirish, faoliyatlariga mutloqo asossiz aralashmaslik choralari belgilanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar qanday tekshirish organlari, mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilishidan qat'iy nazar ularga nisbatan qattiq choralar ko'rish yo'lga qo'yilgan, bu kabi harakatlar yildan yilga kamayib, tadbirkorlar o'z faoliyatlarini qonuniy asoslarga ko'ra yurgizmoqdalar.

Hammanizga ma'lumki, ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishi va aholiga turli xizmatlar ko'rsatilishi, eksport salohiyatining o'sishining eng asosiy tamoyillaridan biri bu aholini ish bilan ta'minlash va ularning real daromadlarini ko'paytirish masalalari aynan tadbirkorlarni nechog'lik barqaror rivojlanishiga bog'liq.

Shu tufayli Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida 2008 yil mobaynida yurtimizda 661 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes sohasida 374 mingga, xizmat ko'rsatish va servis sohasida qariyb 220mingga, kasanachilik hisobidan esa 97 ming 800 ta yangi ish o'rni yaratildi, deb ta'kidlab, bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar yaxshi samara berishini ko'rsatdi.

Mamlakat bo'yicha amalga oshirilayotgan bu tadbirlar albatta aholimizni ish bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularni ish izlab boshqa yurtlarga borishlarga hech qanday hojat yo'qligini anglatadi. Faqat tez va juda boyib ketishni xom-xayol qilganlarga buni tushunmasliklari mumkin. Ular shuni yaxshi anglashlari lozimki, aynan eng rivojlangan, iqtisodiy baquvvat hisoblangan davlatlar bugun o'zlaridagi korxonalarda ish o'rinlarini 100 minglab qisqartirmoqdalar, odamlarni majburiy ko'chaga chiqarib yubormoqdalar.

Respublikamizda aholini ish bilan ta'minlash choralari ko'rish bilan bir vaqtda davlat organlari tomonidan aholini mehnatga oid va bandligi bilan bog'liq qonunlar qanday bajarilayotganini ham muntazam tekshirib bormoqdalar. Fuqarolarni mehnatidan foydalanishda mulk shakli va egaligidan qat'iy nazar

barcha tashkilotlar tomonidan ularga nisbatan mehnat qonunlariga rioya etishlarini prokurorlar nazorat qilib boradilar.

Birgina o'tgan 2008 yilda, aholini mehnatga va bandlikka oid huquqlarini qonunlar asosida ijro etilishi bo'yicha prokurorlar 594 ta tekshirish o'tkazganlar. Bu tekshirishlar natijasida aniqlangan 3612 ta noqonuniy xujjatlarga protest keltirilgan, qonun buzilishlarini bartaraf etish yuzasidan 1042 ta taqdimnomalar kiritilgan, qariyb 5 mingga yaqin shaxs prokurorlarning qaroriga muvofiq intizomiy, ma'muriy va moddiy javobgarlikka tortilganlar. Shuningdek, fuqarolarning mehnat va bandlik bilan bog'liq huquqlarini buzilishidan etkazilgan qq4 mln. so'mdan ortiq zarar aybdorlar tomonidan ixtiyoriy ravishda qoplangan, ularning bu huquqlarini buzilishi oqibatida etkazilgan 11 mlrd. 229 mln. so'mlik zararlarini undirish bo'yicha prokurorlar tomonidan sudlarga 7910 ta da'vo arizasi kiritilgan.

Bulardan tashqari mamlakatimizda odam savdosi bilan shug'ullanishni oldini olish va unga qarshi kurashishni huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha ham ko'pgina tadbirlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksida bunday harakatlar uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi modda kiritilgan. Shuningdek odam savdosiga qarshi kurash faoliyatining huquqiy maqomini belgilash va bu faoliyatni amalga oshirishni ta'minlash maqsadida 2008 yil 18 aprelda "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish bilan birga, odam savdosidan jabrlanganlarni himoya qilish va ularga yordam ko'rsatishni ham huquqiy asosini yaratdi. Unga ko'ra bu harakatlardan jabrlanganlarga yordam ko'rsatish va ularni himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan ixtisoslashtirilgan muassasalar tashkil etiladi. Bu muassasalarga odam savdosidan jabrlanganlarga qulay yashash, shaxsiy gigiena sharoitlarni, oziq-ovqat, dori vositalari, tibbiy buyumlar bilan ta'minlash, psixologik, ijtimoiy, yuridik va boshqa xil yordam berish yuklatiladi.

Odam savdosiga qarshi kurashishni amaga oshiruvchi davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, ularni Respublikadagi bu sohadagi vaziyatni o'rganib borib o'z vaqtida choralar ko'rishni ta'minlash maqsadida odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha Respublika idoralararo komissiya tashkil etildi. Komissiya o'z faoliyatini boshladi, uning majlislarida bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar belgilandi va tegishli choralar ko'rilmogda.

Respublikada odam savdosiga qarshi kurash bo'yicha maqsadli, tizimli va keskin harakatlar amalga oshirilmogda. Albatta fuqarolarimiz qonunlarni tushunib, ularga itoat etsalar, yaratilgan sharoitlardan foydalanib faol mehnat qilsalar bu choralar o'z samarasini beradi.

XULOSA

Bugungi kunda odam savdosi inson, uning sha'ni, qadr-qimmati, shaxsiy daxlsizligi, osoyishta turmushi hamda kelajagiga tahdid solayotgan, insoniyat stivilizastiyasiga ochiqdan-ochiq to'siq bo'layotgan, jamiyat taraqqiyoti va davlat rivojiga jiddiy xavf tug'dirayotgan, o'z domiga asosan ayollar va yoshlarni tortayotgan, hudud va chegara tanlamayotgan transmilliy uyushgan jinoyatchilikning xavfli ko'rinishlaridan biriga aylandi.

Odam savdosi muammosi keyingi paytlarda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlarini, balki keng jamoatchilikni ham qattiq tashvishlantirmoqda. Chunki, odam savdosi har bir insonning oliy qadriyat sifatida e'tirof etiladigan sha'ni, qadr-qimmati va shaxsiy daxlsizligiga xavf solmoqda. Shu boisdan, ushbu jinoyatchilikka barham berish nafaqat huquq-tartibot idoralari xodimlaridan, balki keng jamoatchilikdan ham faollikni talab etadi.

Bizning nuqtai-nazarimizga ko'ra, "zamonaviy qullik" tushunchasiga, ya'ni odam savdosi jinoyatlarining jabrlanuvchilariga xos bo'lgan holatlarga quyidagilar kiradi:

birinchidan, odam savdosining jabrlanuvchilari zo'ravonlik yoki uni qo'llash tahdidi yordamida nazorat qilinadi. Ular aksariyat hollarda, shafqatsiz jismoniy, jinsiy yoki ruhiy munosabat bilan to'qnash kelishadilar;

ikkinchidan, odam savdosining jabrlanuvchilari tutqunlik holatida bo'ladilar. Ular o'z irodasiga qarshi holatda mehnatning majbur qilingan turi bilan shug'ullanadi va vaziyatni o'z xohishiga ko'ra o'zgartira olmaydi, shuningdek, mehnat joyida ular majburiy ravishda ushlab turiladi va doimiy kuzatuv o'rnatilganligi sababli ish joylarini tark eta olmaydilar;

uchinchidan, odam savdosining jabrlanuvchilari o'z ishiga arziyas haq oladi yoki ish haqqini umuman olmaydi. Ularning barcha daromadlarini yoki uning katta qismini nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi ish beruvchi, vositachi, qo'shmachi va boshqa shu singari shaxslar majburiy tartibda olib qo'yadilar;

to'rtinchidan, odam savdosining jabrlanuvchilari nazorat ostida bo'lganliklari sababli o'z qarindoshlari, do'stlari va tanishlari bilan erkin muloqatda bo'la

olmaydilar. Hattoki, ular shifokor ko'rigiga, shifoxonaga yoki boshqa tibbiyot muassasalariga ham nazorat ostida olib boriladi;

beshinchidan, odam savdosining jabrlanuvchilaridan shaxslarini tasdiqlovchi, shuningdek qonuniy bo'lish huquqini beruvchi boshqa hujjatlari olib qo'yiladi. Odam savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxslar o'z "kir-dikorlar"ini yashirish maqsadida bunday savdoning qurboniga aylanayotgan shaxslarni imkon qadar e'tibordan chetda tutishga harakat qiladilar. Avvalo, buning uchun odamlarni xorijga noqonuniy yo'llar bilan olib chiqishga, pasport va shaxsiy hujjatlarini qalbakilashtirishga urinadilar. Bu holat esa noqonuniy migratsiya salmog'ining ortishiga, muayyan davlat xududiga noqonuniy kirib kelganlar sonining ortib, iqtisodiy, demografik va kriminogen vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatishiga, shu bilan bir qatorda, xorijga chiqish va muayyan davlat hududida bo'lish qoidalarining buzilishiga olib keladi.

Mamlakatimizda odam savdosi, shaxsning erki va huquqlarini poymol etish, zo'ravonlik, fohishabozlik qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilgan bo'lsada, keyingi paytlarda soddadil fuqarolarni chet elga ishlashga olib borish niqobi ostida ularni chuv tushurayotgan firibgarlar uchrab turibdi. Ular turli yo'llar bilan fuqarolarni xorijiy davlatlarga olib borib, ulardan shahvoniy va boshqa maqsadlarda foydalanish hollari so'nggi paytlarda ko'plab qayd etilmoqda.

Kishilar qonuniy tarzda chet elga borish va ishga joylashishdagi vositachilik bilan bog'liq xavfni tushunib etmagan va chet elda ishga joylashish vaziyati to'g'risida deyarli hech narsa bilmagan holda o'zlarini ushbu turdagi xatti-harakatlarni sodir qiluvchi shaxslarning engil o'ljasiga aylanib qolish xavfi ostiga qo'ymoqdalar.

Bugungi kunda chet elga borishni xohlovchilarning asosiy qismi noqonuniy yo'llar bilan chiqib ketishni o'zlariga afzal ko'rishmoqda. Natijada turli qiyinchiliklar, muammolarga duch kelmoqda. Umrida mahallasidan tashqariga chiqmagan odamlar kimlarningdir aldovi, yolg'oniga uchib, bor budini sotib, katta pul bilan chet elga ketyapdi. U erda esa tilni va yo'l yo'riqlarni bilmasligi, eng muhimi, noqonuniy ravishda kelganligi va huquqiy himoyasiz bo'lganligi uchun

qul sifatida ishlatilmoqda. Bir soʻz bilan aytganda, ayrim yurtdoshlarimiz soddaliklari tufayli odam savdogarlarining oʻljasiga aylanib qolganliklarini juda kech anglab tushunib etmoqdalar.

Odam savdosi transmilliy uyushgan jinoyatchilik uchun nihoyatda tez rivojlanayotgan va juda daromadli faoliyatga aylandi. Odam savdosi jinoyatchilar uchun serdaromad manba boʻlganligi uchun ushbu toifadagi jinoyatlar asosan uyushgan guruh va jinoiy uyushmalar tomonidan sodir etilmoqda. Shuning uchun jinoiy tuzilmalar ushbu noqonuniy faoliyat bilan shugʻullanishning turli yoʻllarini qidirish, maqsadini amalga oshirishni engillashtirish uchun xalqaro jinoiy uyushmalar tashkil etish, davlat xizmatchilarini oʻzlariga ogʻdirish payida boʻladilar. Bu esa, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya kabi jamiyatni zamiriga bolta uruvchi xavfli illatlarning keng yoyilishiga sabab boʻladi.

Odam savdosi bilan bogʻliq jinoyat ishlarini oʻrganish shuni koʻrsatmoqdaki, ayollardan fohishalik maqsadida foylanish bilan shugʻullanuvchi uyushgan jinoiy guruhlar faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon boʻladi:

birinchidan, ayollarni fohishabozlik uchun yollash bilan shugʻullanuvchi jinoiy guruhlarda ishtirokchilarning rollari taqsimlangan, bu guruhlar tarkibi vaziyatga qarab oʻzgartirilib turiladi, vaqti-vaqti bilan bu jinoiy guruhlariga yangi ishtirokchilar qoʻshiladi yoki ajralib chiqadi;

ikkinchidan, ushbu jinoiy guruhlarining maʼlum bir aʼzolari fohishabozlikka yollanayotganlarning aksariyat qismini engil tabiatli hamda engil hayot kechirishga oʻrgangan qizlar ichidan, turmushi buzilgan yosh ayollar ichidan tanlashadi;

uchinchidan, jinoiy guruhning boshqa aʼzolari esa, tanlangan shaxslarning chet elga chiqish “viza”sini rasmiylashtirish bilan shugʻullanadi;

toʻrtinchidan, jinoiy guruhning boshqa ishtirokchilari yollangan qizlarni bevosita chet elga olib boradigan shaxslarga “sotadilar”;

beshinchidan, jinoiy tuzilmaning yana boshqa aʼzolari yollangan ayollarni bevosita chet elga olib borishlari uchun yoʻl harajatlarini oʻz zimmasiga olib belgilangan davlatga olib boradilar;

oltinchidan, jinoiy tuzilmaning boshqa bir a'zolari chet elga olib kelingan ayollarning hujjatlarini olib qo'yib, fohishalik bilan shug'ullanishga majbur etadilar va har kunlik ishlab berish narxini qo'yadilar yoki ularni bevosita o'sha erda qo'shmachilik bilan shug'ullanayotgan fuqarolarga sotadilar.

Jinoiy tuzilmalar tarkibida faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar bir birini hatto bilmasligi, yollangan ayollar esa ularning bir jinoiy guruh tomonidan boshqa jinoiy guruhga sotilganligi haqida xabardor bo'lmasligi ham ushbu jinoiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi.

Shuni alohida qayd etish joizki, bunday toifadagi jinoiy tuzilmalar aksariyat hollarda turli shakldagi sayyohlik xizmatlarini ko'rsatuvchi firmalar niqobi ostida faoliyat olib boradi.

Shuni ta'kidlash joizki, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar, o'z xususiyatiga ko'ra, latent xarakterga ega¹⁹. Chunki odam savdosi qurbonlari ularga nisbatan jismoniy yoki ruhiy tazyiq o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlar oshkor bo'lishi yoki qonunga xilof ravishda chet elga chiqqanligi fosh bo'lishidan cho'chib, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat etmaydilar. Bunday holat odam savdosi bilan shug'ullangan shaxslarning javobgarlikdan qutulib qolishiga hamda jinoiy faoliyatini davom ettirishiga olib keladi.

Binobarin, jinoiy-huquqiy javobgarlikning muqarrarligi prinsipi jinoyatni sodir etgan har bir shaxsning mazkur jinoyat uchun javobgar ekanligini ifodalaydigan asosiy qoidadir²⁰. Zero, qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart.

Fikrimizcha, odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlarga qarshi kurashish va ularni oldini olishda quyidagilarni amalga oshirilishi o'zining ijobiy samarasini beradi:

¹⁹ Латент жиноятлар дейилганда, содир этилган, ammo аниқланмаган ва давлат идораларига хабар қилинмаган жиноятлар тушунилади.

²⁰ Уголовное право. Общая часть: Учебник // Якубов А.С., Кабулов Р. и др. – Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 2005. С. 30., Уголовный кодекс Республики Узбекистан: научно-практический комментарий // Под редакцией Якубова А.С. –Т.: Академия МВД Республики Узбекистан, 1996. - С. 17.

– shahvoniy maqsadlarda foydalanish evaziga ma'lum miqdorda manfaatdor bo'lishi uchun odamlarni yollovchi, fohishaxona saqlovchi yoki qo'shmachilik qiluvchi shaxslarni aniqlash va ularga nisbatan javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash;

– aholi o'rtasida axloqiy ma'naviy buzuqlikni targ'ib etuvchi, zo'rovonlik va shavqatsizlikka o'rgatuvchi, keng ommaning fikrini zaxarlovchi barcha omillarni o'rganib chiqish, ularning manbalarini, kimlar tomonidan va qaerlarda tarqatilayotganligini aniqlash, bunday holatlarning oldini olishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni ko'rish;

– kabelli telekanallar, video-tasvir va audio ovoz yozish studiyalarining, video-audio tasmlari hamda CD, DVD disklari bilan savdo qiluvchi shaxobchalar, pornografiya, zo'rovonlik, shavqatsizlik va vaxshiylikni targ'ib qiluvchi, shuningdek milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizga zid bo'lgan ma'lumotlarni tarqatilishini oldini olish maqsadida barcha turdagi ro'znomalar, oynomalar, turli xil axborot tarqatuvchi faoliyat turi bilan savdo qiluvchi shaxobchalarning faoliyatini qat'iy nazorat ostiga olish;

– xorijiy davlatlarga fuqarolarni yuborish bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar, sayyohlik firmalari hamda shu usuldagi turli reklamalar beruvchi yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini qat'iy nazorat ostiga olish;

– tijorat va boshqa yumushlar bilan tez-tez MDHga a'zo va boshqa xorijiy davlatlarga chiqib turadigan shaxslarni, ayniqsa qo'shmachilik va fohishalikka moyil bo'lgan ayollarning ro'yxatlarini tuzish, ularni turmush tarzini alohida nazorat ostiga olish, bu toifadagi shaxslarni o'rganib chiqib, shaxvoniy maqsadlarda foydalanish uchun yollanishi mumkin bo'lganlarni aniqlash choralarini ko'rish;

– noqonuniy yo'llar bilan chet ellarga borib, deportatsiya²¹ qilingan fuqarolarni aniqlab, ro'yxatlarini tuzib, bunday shaxslar bilan profilaktik suhbatlar

²¹ Депортация қилиш деганда, мамлакатдан чиқариб юбориш, яъни виза тартибини бузганлик ёки яшаб турган мамлакатдаги содир этилган ҳар қандай ҳуқуқбузарлик учун жазо тариқасида кимнингдир мажбурий тарзда ўз ватанига қайтариб юбориш тушунилади.

o'tkazish hamda ularning nima maqsadda, qanday yo'llar bilan chiqib ketganligini aniqlash choralarini ko'rish;

– turli teri-tanosil va OITS kasalligini aholi orasida tarqalishini oldini olish, shu maqsadda ushbu kasalliklarni tarqatuvchi asosiy manbalar bo'lgan fohishalarni, engil-elpi, tartibsiz jinsiy hayot kechiruvchilarni, turli islovatxonalar egalari va ularning mijozlarini, besaqolbozlar va igna orqali giyohvand moddalarni qabul qiluvchi shaxslarni, qimor o'yinlarining ishtirokchilarini aniqlash va tibbiy ko'rikdan o'tishlarini ta'minlash;

– ommaviy-axborot vositalarida (televideniya, radioda, ro'znoma va oynomalarda) berilayotgan turli xil reklama va e'lonlarda bayon etilgan holatlarning haqiqiy ahvolga mosligini tekshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan maxsus tadbirlar o'tkazish. Ayniqsa, turli xil massaj, uqalash davolash maskanlariga taklif etish, chet mamlakatlarga ishga yuborish bilan bog'liq e'lonlarga alohida etibor qaratish;

– ommaviy axborot vositalarida muqaddam jinsiy zo'ravonlik va yolg'on qurboni bo'lgan, islovatxonalarda saqlangan, chet mamlakatlarda shahvoniy maqsadlarda zo'rlik ishlatib foydalanilgan ayollar, shuningdek ishga joylashtirish va boshqa maqsadlarda aldov yo'li bilan chet ellarga olib ketilgan shaxslar to'g'risida axloq-odob doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va fuqarolarimizning ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan radiosuhbatlar, teleko'rsatuvlar va boshqa ko'rinishdagi chiqishlarni muntazam ravishda uyushtirib borish va xk.

Yuqorida ta'kidlangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri bo'lgan odam savdosining har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishda muayyan ijobiy natijalarga erishilishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO'YXATI:

Rahbariy adabiyotlar:

Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchilik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: «O'zbekiston», 200q. – qq6 b.

Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 1q. – T.: «O'zbekiston», 2005. – 448 b.

Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat. T. 14. – T.: «O'zbekiston», 2006. – 280 b.

Karimov I. A. Mamlakatni modernizastiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. – T. 16. – T.: «O'zbekiston», 2008. – q68 b.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi kodekslari to'plami // Nashr uchun ma'sul: *M. Ikromov, U. Ayubov.* O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T., «Adolat» 2006. – 800 b.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: O'zbekiston, 2009. – 40 b.

«Odam savdosiga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009 yil 24 noyabrdagi 12-sonli qarori // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarori. – T.: «O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining birlashgan tahririyati», – 2009. – B. 2.

Monografiya, darslik, o'quv qo'llanma va ilmiy maqolalar:

Rustamboev M. X. Jinoyat huquqi. Maxsus qism. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T., «O'qituvchi», 200q. – 560 b.

Rustamboev M.X. Jinoyat huquqi. Darslik. – T., O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. «Adolat», 2007. – 656 b.

Rustamboev M.X. Odam savdosi. – T.: TDYuI nashriyoti, 2009.

Fozilov I.Yu. Odam savdosi – global muammo, unga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik va birdamlik darkor // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Axborotnomasi, 2009. – № 2. – B. 51-5q.

J.Bazarbaev va avtorlar jamoasi. Adam savdasi'- qulliq tan'basi'/Nukus,NDPI bosmaxonasi, 2013.

INTERNET SAHIFALARI

<http://www.parliament.am>, <http://www.cis-legal-reform.org>.

<http://www.sedmitza.ru/>